| ***Маълумот беришга асосланган****-натижага эришиш учун гапириш ёки ёзишни талаб қиладиган вазифалар.* | Ўқувчилар судялар сифатида ҳаракат қилиб уларга берилган маълумотлардан келиб чиқиб жиноят содир этганларга нима жазо беришни муҳокама қилиб қарор қабул қилишлари керак. | «Чўнтакдаги нарсалар вазифаси». Тил ўрганувчиларга бирон кимсанинг чўнтагидаги нарсалар кўрсатилиб улардан бу қандай инсон бўлишлиги мумкинлигини тахмин қилиш сўралади. |

Маълумот олишга ва маълумот беришга асосланган вазифалар ўртасидаги фарқ бир қатор назарий ва амалий сабабларга кўра муҳим аҳамиятга эга. Маълумот олишга асосланган вазифалар тилдан фойдаланишга етарлича манбаага эга бўлмаган бошланғич даражадаги тил ўрганувчилар учун керак. Бундай вазифалар ўрганувчиларни улар учун тушунарли бўлган маълумот билан таъминлаб тил ўрганишларини жадаллаштиради. Бундай вазифалар анъанавий ёндашувларга ўрганиб қолган ўқувчиларга вазифага асосланган тил ўқитишни жорий қилишда ҳам қўл келади. Маълумот беришга асосланган вазифалар эса юқори даражадаги малакани такомиллаштириш учун керак. Бундай вазифалар ўрганувчилар учун

маъно музокараси (ва шунингдек шаклни ҳам) учун кўпроқ имконият беради.

Тил материалига урғу бериладиган вазифалардан TBLT да фойдаланиш ҳақида тилшунос олимлар орасида турли ҳил қарши фикрлар бўлсада Rod Ellis бундай вазифлардан фойдаланишнинг самараси борлиги ҳақида ёзади. Баъзи тил ҳодисалари масалан, эга ва кесимнинг мослашиши, шарт эргаш гапли қўшма гаплар каби мураккаб грамматик шакллар ҳаттоки тилни ривожланган даражасида ўрганиш давомида ҳам ўрганувчиларга муаммо туғдириши мумкин. Бироқ, Ellis бутунлай тил материалига урғу бериладиган вазифалардан ташкил топган вазифага асосланган дастурни назарда тутмайди, аксинча ўқувчилар аниқ лингвистик шакллардан фойдаланишга уринаётганлари, аммо буни тўғри ва аниқ бажара олмасликлари аниқ бўлганда уларни танлаб ишлатишни айтади.

Ellis тил материалига урғу бериладиган вазифаларни онгни оширувчи вазифалар (consciousness-raising task) деб атайди. Бу лингвистик шаклни (одатда грамматик ёки прагматик) вазифа мавзусига айлантиради ва ўқувчиларга қоидани тушунишга ёрдам беришга қаратилади. Бундан ташқари, онгни ошириш вазифалари, агар ўқувчилар вазифани бажариш давомида пайдо бўладиган лингвистик муаммоларни ҳал қилишда биргаликда ҳаракат қилсалар, бу уларга мулоқот қилиш имкониятини беради. Шундай экан уларни «вазифа» деб аташ мумкин. Демак бошқа мавзулар сингари тилнинг ўзини ҳам суҳбат мавзусига айлантириш мумкин.

Willisнинг таъкидлашича, чет тилини ўрганиш учун бу тилда мулоқот қилиш учун кўплаб имкониятларга эга бўлиш керак, ундан мукаммал даражада фойдаланишни кутмасдан. Шунингдек Willis имтиҳон учун грамматик тил ҳодисалари ёки тил намуналари (language patterns) тил ўрганувчилар томонидан кўп қайтарилиниб машқ қилинган бўлсада, бу уларни ўрганилаётган чет тилида равон мулоқотга киришга олиб келмайди дейди. Чет тилидаги маълум тил намунасидан фойдаланишда қийналаётган талаба тесдан ўтиши мумкин, лекин улар мулоқот чоғида айнан ўша ҳатони такрорлашга мойилдирлар. Шунинг учун талабалар синфда ўрганган грамматик қоидалардан осонлик билан реал ҳаётда алоқага киришганларида фойдалана оладилар дегани тўғри фикр эмас. Талабалар ўзларига бўлган ишончни кўтариш учун тилдан эркин фойдаланишни ўрганишлари керак, ҳатто бу жуда кўп хатоларга йўл қўйишни англатса ҳам.

Willisнинг келтириб ўтган фикрига қўшилган ҳолда биз TBLT талабага ўрганилаётган чет тилида оғзаки ва ёзма мулоқотга эркин киришиш имкониятини беради деб айта оламиз. Лингвистик шакл билан алоқаси бўлмаган прагматик вазифани бажариш мобайнида ўқувчилар ўзлари эътибор бермаган ҳолда (билмаган ҳолда) чет тилидан фойдаланиб, бу тилдаги кўникмаларини автоматлаштирадилар, яъни малакаларини такомиллаштирадилар.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР**


1. Rod Ellis. Position paper: Moving task-based language teaching forward. Lang. Teach. (2017), 50.4, 507–526 Cambridge University press 2017, page 509-510 https://www.cambridge.org/core/terms. https://doi.org/10.1017/S0261444817000179
2. Willis, Jane. *A framework for task-based learning*. Harlow: Longman, 1996 Pages 4-7
3. Rubin, J. and I. Thomson. 1982. How to Be a More Successful Language Learner. Boston MA: Heinle..
4. Long, M (1985). A role of instruction in second language acquisition:Task-Based Language Teaching. Clevedon: Multilingual Matters.
5. Crookes, G. Task classifications. A cross- Disciplinary review. Center for Second Language Classroom Research, University of Hawai’i
6. Prabhu, N. (1987). Second Language Pedagogy. Oxford: Oxford University Press.
7. Candlin, C. (1987). Towards task-based language learning. In C.Candlin and D. Murphy (eds.), Langauge Learning Tasks (pp. 5-22). London: Prentice Hall.
8. Nunan, D. (1989). Designing Tasks for the Communicative Classroom. Cambridge: Cambridge University Press.

# ONA TILI DARSLARINI O`QITISHDA “OLTINCHI ( YETTINCHISI) ORTIQCHA” INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Abdullayeva Feruza Janibekovna**
TTA Urganch filiali akademik litseyning oliy toifali,
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
**Rozumbetova Dilara Yavkachevna**
Xonqa tuman 24- son maktaning
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

*Annotatsiya*: Bu maqolada ona tili darslarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biriligi ko’rsatilgan va ona tili o’qituvchilariga metodik tavsiyalar berilgan.
*Kalit so’z:* interfaol, pedagog, metod, ona tili, bilim, malaka, ko'nikma, fikr.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan jamiyatning barcha jabhalari, xususan, ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnalogiyalaridan keng foydalanishni yo’lga qo’yishga qaratilayotgan e’tibor samarasi o’laroq, bugun jamiyatning barcha sohalari va xalqimiz turmush tarziga kompyuter texnalogiyalari chuqur kirib borayapti.

Interfaol zamonaviy ta‘lim texnologiyasi – ta‘lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya‘ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta‘lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo’lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta‘lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Interfaol ta‘lim - ta‘lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo`li sifatida e‘tirof etilayotgan ta‘lim turi va o`qitish shakli sanaladi.

Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi.

Ma'lumki, ona tili ta’limi o’quvchilarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta’limiga o‘quv fani emas, balki, butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qaraladi.

O’quvchilarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o’z-o’zini anglash salohiyatini shakllantirishga,jismonan sog’lom bo’lishga moddiy borliq go’zalliklarini his eta olishga, go’zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o’zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o’rgatadi.

Bu o`rinda ona tili darslarining ham o`rni katta. Bu darslarda ta’limjarayonida qo`llanilayotgan interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

So’z turkumlarini o’rganishda “Oltinchi (yettinchisi) ortiqcha” metodidan ham foydalanish mumkin. Buni biz ” Ortiqchasini ajrat” degan topshiriq bilan berdik. O’quvchilarga bir turkumdagi so’zlar ichiga boshqa turkumga doir so’zlar arlashtirib berildi. O’quvchilar ular ichidan boshqa turkumdagi so’zlarni ajratib olishdi va nima uchun ajratib olish sababiui izohlab berishadi. Bu uslni biz nkartochkalar yordamida va kompyuterda bajartirdik. Ortiqchasini ajratishgandan so’ng mavzuga taalluqli so’zlarni husnixat bilan daftarlariga yozdirdik.

Berilgan topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

**Otlar ichidan ortiqchasini ajrat.**

Daraxt, suv, osmon, ko’k, daftar, kamalak, yomg’ir, tiniq.

**Sifatlar ichidan ortiqchasini ajrat.**

Baland, keng, choynak, piyola, tor, katta, past, cho’mich, kapkir, kichik.

**Fe’llar ichidan ortiqchasini ajrat.**

Yuvindi, tebrandi, yugurdi, dutor, rubob, chrchadi, yangradi, uchdi

Ma’lumki, savod o’rgatish jarayonida o’quvchilar tovush, bo’g’in, so’z va gaplarni grafik ifodalar ostida anglab, tushunib boradilar.

Texnika vositalaridan dars jarayonida foydallanish – dars matni yoki o`qituvchilar tomonidan

o`quv materialini texnika vositasida o’tish emas, balki o`quvchilarning mazkur mavzuni mustaqil va ijodiy o`rganishi bo`yicha o`quv faoliyati dasturidir. Mazkur dasturda o`qituvchilar tomonidan tuzilib, unda texnika vositasining umumiy didaktik maqsadi, mavzuni o`rganish bosqichlari, o`quvchilar tomonidan bajariladigan o`quv faoliyati elementlari, ularning bilimini nazorat qilish yo`llari ketma-ket bayon etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsy javobgarli – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.-T.:”O’zbekiston”.2017.-B44

2. J. F. Yuldoshev, „Yangi pedagogik texnologiya yunalishlari, muammolari, echimlari". „Xalk ta'limi" jurnali, T., №4 1999 yil.

3. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedogogik texnologiya – Zamonaviy o’zbek modeli. – Toshkent: “ Lider Press”, 2009.

4.Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o`qitish texnologiyalari. – T.: ―Fan va texnologiyalar‖ nashrièti, 2007

5.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: ―Iste‘dod‖ jamg`armasi, 2008.

6. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: ―Fan va texnologiyalar‖ nashriyoti, 2011.

# MAKTABDA BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI O’QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI

**Allamova Zulfiya Masharipovna,**
**Madaminova Iroda Sadullayevna**
Xonqa tuman.24-son maktabning
boshlang’ich sinf o’qituvchilari

*Annatotsiya:* Bu maqolada o`qituvchining samarali faoliyat ko`rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqilgan bo’lib, ta‘lim texnologiyasi o’quvchilar faoliyatiga nisbatan yo`naltirilgan.

*Kalit so’z:* ta‘lim, interfaol, suhbat, ijtimoiy, pedagogik, texnologiya.

Interfaol metod – ta’lim jarayonida o’quvchilar hamda o’qituvchi o’rtasidagi faollikni shirish orqali o’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo’llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish, o’quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko’pligi, o’quvchilar tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo’lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo’lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o’ziga xos ahamiyatga ega.

O'quv topshiriqlarini individual bajarish jarayonida o'quvchilarning aqhy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi va har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi, samaradorlik ortadi. Modulli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining metodlaridan foydalanib tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etish asosan darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham foydalaniladi. Masalan, o'quvchilarning uy vazifasini bajarishida ularga tafovutlab yondashish imkoniyatlari mavjud. O'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, ma’ruza va referatlar va turli mavzularda o'tkaziladigan tanlovlar uchun materiallar tayyorlash shular jumlasidandir.

**“Zakovatli zukko” metodi.** Mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o‘quvchlarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shaklalantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z bilimlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchlar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Metod o‘quvchlar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

**“Charxpalak” metodi.** “Charxpalak” texnologiyasidan o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo‘lim tugatilganidan keyin, o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘tkazishda foydalanish mumkin. Mashg‘ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo’ladi. Qolaversa, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o‘rganishda ham asqotadi.

**“Kim ko‘p biladi”** o‘yini. Bu o‘yinni o’qish darsining xohlagan mavzusini o‘rganishda qo’llash mumkin. Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog‘ozlarni o‘qituvchiga topshiradilar, sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linadi. Boshqaruvchi qo‘llarni sanab, har biriga 1 balldan qo‘yadi. Har bir savolga bir o‘quvchidan javob so‘raladi. Agar javob noto‘g‘ri bo’lsa, o‘sha guruhdan 1 ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko‘p ball to‘plasa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – “O’zbekiston” – 2016.56B.

2. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o’qitish texnologiyalari. – T.: ―Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2007.

# MAKTABDA BOSHLANG’ICH SINF O`QUVCHILARINI FANLARGA QIZIQISHINI UYG’OTISHDA “MUAMMOLI HIKOYA” METODIDAN FOYDALANISH VA UNING SAMARASI

**Allanazarova Shohista Palvannazarovna**
Xorazm viloyat xiva tuman 11- sonli maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annatotsiya:* Bu maqolada o`qituvchining samarali faoliyat ko`rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqilgan bo’lib, ta‘lim texnologiyasi o’quvchilar faoliyatiga nisbatan yo`naltirilgan va o’qituvchilarga foydalanish uchun metodik tavsiyalar berilgan.

*Kalit so’z:* Muammoli hikoya, ta‘lim, interfaol, suhbat, ijtimoiy, pedagogik.

*Interfaol* - inglizcha interakt so’zidan olingan bo’lib, inter hamkorlikda akt harakat qilmoq ma’nosini bildiradi.

*Interfaollik deganda* o’quvchining o’quvchi bilan hamkorlikda yoki kompьyuter bilan muloqoti o’zaro ta’sir ko’rsatish rejimida ishlashi tushuniladi.

Interfaol o’qitish bu avvalo dialog tarzda o’qitish, muloqot jarayonida barcha ishtirokchilar tomonidan hamkorlikda muammolarni hal etishidir.

Interfaol o’qitishning asosiy mohiyati o’qitish jarayonida barcha o’quvchilar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqea va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo’llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi.

Shu sababli, biologiyani o’qitishda o’qitishning reproduktiv metodlari bo’lgan og’zaki bayon, ko’rgazmali va amaliy metodlar bilan birgalikda *muammoli izlanish va mantiqiy metodlardan* foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o’qituvchi mazkur metodlarning o’ziga xos xususiyatlari, ular tarkibiga kiradigan metodik uslublarni to’g’ri anglashi va o’z o’rnida samarali foydalanish ko’nikmalarini egallagan bo’lishi lozim.

O’quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to’g’ri joriy etilishi o’qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o’qituvchidan ko’proq mustaqilllikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Hozirgi davrda sodir bo’layotgan innovasion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o’zlashtirish va o’zlashtirgan bilimlarini o’zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

*Muammoli hikoya metodida*, o’qituvchi yangi mavzuni o’rganish jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratadi, o’quvchilar bilan hamkorlikda hikoya muammoli savollarga javob topishga, o’quv farazlarini xosil qilish va dalillashga imkon yaratiladi, o’quvchilarning javoblari asosida muammolar hal etiladi.

*Muammoli hikoya metodida* - o’quvchilar sinfdagi soniga qarab 3-6 ta guruhga ajratiladi. Xar bir guruhda kamida 5 tadan o’quvchi bo’lishi kerak. Muammoli hikoya sifatida – o’qish darsligidagi “Qovun sayli” hikoyasi olinadi va guruhlarga savollar berish boshlanadi.

1. Hikoya nima uchun «Qovun sayli» deb nomlangan?
2. Qovun sayli qachon bo‘ladi?
3. Qovunlarning qanday turlarini bilasiz?
4. Matnda tilga olingan qovun navlarini daftaringizga yozing

O`qituvchi o’quvchilar bilan hamkorlikda hikoya muammoli savollarga javob topishga, o’quv farazlarini xosil qilish va dalillashga imkon yaratiladi, o’quvchilarning javoblari asosida muammolar hal etiladi.

Xulosa qilib aytganda, o’qish - darslarni hayotga bog‘lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni o’qish fani o‘yinlar egallaydi. O`qish fani o‘yinlar nihoyatda xilma-xil bo‘lib, darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni qiziqarli bo‘lishida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Hasanboyev J., To’raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug’at. T.:Fan va texnologiya, 2009.-b.348.

2. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / Sakkizinchi nashri. – T.: O‘qituvchi, 2017. – 152 b.

# O'QUVCHILARDA MEDIASAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH

**Atajonov Mansurbek Matchanovich**
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktabning informatika fani o'qituvchisi
atajonovmansur@gmail ./99-509-60-14
**Otajonova Yodgora Matchonovna**
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktabning tarix fani o'qituvchisi
otajonovayodgora@gmail.com//91-919-34-01

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada ta'limda AKT ni qo'llashning didaktik asoslari va o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalaridan foydalanish haqida so'z boradi

**Kalit so'zlar:** didaktika, ,multimediali resurs,mediamatn,elektron darsliklar.

1. Zamonaviy ta'limning eng muhim vazifasi o'quvchiga faqatgina muayyan bilimni o'rgatish emas,balki ularning fikrlash qobilyatini o'stirish,egallagan bilimlarini amalda samarali qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishdan iboratdir.Bunda dars jarayonida AKT imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natija beradi. XXI –ASR AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASRI bo'lganligini e'tiborga olgan holda o'quvchilarning zamonaviy ta'lim olishida AKT vositalarining o'rni beqiyosdir.O'quv jarayonida zamonaviy AKT ni qo'llashning didaktik asoslari: *Didaktika* – ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari, o'qitish nazariyasini o'rganuvchi pedagogikaning tarkibiy bo'limi.*Didaktikaning vazifalari* sirasiga o'qitish jarayonini, uning pedagogik shartlarini tavsiflash va tushuntirish, o'qitishning yangi vositalari,texnologiyalari asosida takomillashtirish kiradi. O'quvchilar malakasini oshirishda o'quv jarayonini loyihalashtirish, o'quv modullari tarkibiga kiruvchi mavzularni o'qitish metodikasini ishlab chiqishda o'quv maqsadlari va mazmunini o'qitish jarayoni qonuniyatlari bilan bog'lovchi ***didaktik tamoyillarga*** asoslangan holda tashkil etilishi ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlaydi.O'quvchilarning malakasini zamonaviy AKT larni qo'llagan holda samarali oshirishning quyidagi didaktik tamoyillarini ajratib olish mumkin: ***-ilmiylik;-tizimlilik;-ko'rgazmalilik;-nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi; =kasbiy yo'naltirilganlik; -onglilik va faollik;-ta'limni axborotlashtirish***. Bunda didaktik tamoyillarning kompleks ravishda o'zaro bog'liqligi, oshib borayotgan tizimli ahamiyatini alohida belgilash maqsadga muvofiq.So'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi,ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan. Bugun mediasavodxonlik – axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson o'ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim.

**Mediasavodxonlik tushunchasi.** Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro entsiklopediyasida qayd etilishicha, «Mediasavodxonlik» (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi,mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi,zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir. Ingliz siyosatshunosi R.Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma'lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. M.Guetterz esa multimedia-savodxonlik o'z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deydi.Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir.

**Mediasavodxonlikni rivojlantirish:**

– Maqolalarni to'liq o'qish, orfografik xatolarga e'tibor berish;
– Rasmiy kanallarning xabarlarni o'qib borish;

– Maqolalarga fikr-mulohazalar bildirish va berilgan fikr mulohazalarni o'qish

Medisavodxonlikning maqsadi- har bir medianing ustuvorlik va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi-insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek, odamlarga OAV hamda fuqarolik jurnalistika rolini tushunishga yordam berishdir. Quyidagi vositalar dars jarayoni samaradorligini oshirshga xizmat qiladi:

-interfaol elektron didaktik vositalar; -multimediali resurslar;

audio vizual elektron darsliklar; -immitatsion o'quv vositalar; -online muloqotlar; Multimedia (ingl. multi – "ko'p, keng", media "muhit")li resurslar ovoz, grafika, animatsiyalarni o'ziga olgan harakatlanish mavjud bo'lgan

muayyan mavzuga doir resursdir. Bunday resurs tarkibiga elektron taqdimot, videoma'ruza, videoroliklar kirishi mumkin Umuman olganda, ta'lim jarayonida elektron axborot ta'lim resurslaridan unumli foydalanish natijasida o'quvchi va tinglovchilar o'quv materiallarini tez va qulay usulda,ko'rish,eshitish orqali chuqurroq va mukammalroq o'zlashtiradilar. Xulosa sifatida shuni aytmoqchimanki, ta'lim-tarbiya tizimiga axborot-kommunikatsiya vositalarini keng joriy etib,o'quvchilarning bilimlari turli xil mediavositalar orqali mustahkamlab borilsa,yosh avlod bilimli va zamonaviy texnika yutuqlaridan keng foydalana oladigan yetuk kadrlar bo'lib yetishadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Xoliqov. "Pedagogik Mahorat", Toshkent-2011-yil

2. Ishmuhammedov M, Yo`ldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". Toshkent-1998-yil.

3. ziyonet.uz ,eduportal.uz

4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari // «Info. Kom Uz» jur. №3,2006-yil

# ADABIYOT FANINI O’QITISHDA “QOR BO’RON” INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI

**Bog'ibekova Hamida Allayarovna**
TTA Urganch filiali akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada “Qor bo’ron” metodi orqali o’quvchilarni adabiyot faniga qiziqtirish, aqliy, ruhiy, axloqiy sifatlari va yoshlikdan fkirlash qobilyatini oshirishga bog`liq bo`lgan ma’lumotlarni qamrab olgan.

*Kalit so’z:* metod, interfaol, ta’lim, tarbiya, o’qituvchi, o`quvchi, pedagog.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’yektiv xususiyatga ega, ya’ni, har bir pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

An’anaviy darslarni ko‘z oldimizga keltirsak, o‘qituvchi mavzuni chiroyli tushuntiradi, savol javob mavzu doirasida uyushtiriladi. Keyingi darsda o‘quvchilar o‘qituvchi kabi gapirishga harakat qiladi, kitobdan mavzuni qayta qayta o‘qiydi biyron aytib beradi. Berilgan savollar ham asosan shu o‘tilgan mavzu doirasida bo‘ladi. Jurnallar “besh” bilan to‘lib boradi. Oradan bir oz vaqt o‘tib mavzu so‘ralganda o‘quvchi aytishga qiynalib qoladi. Yuzaki yodlashning natijasi shunday mavhum holatlarga olib keladi. Masalan, 80 minutlik darsning yarmidan ko‘p vaqtini darslikdagi matnlarni ko‘chirtirish bilan o‘tkazgan o‘qituvchilar ham yo‘q emas. Bugungi darslar o‘quvchini mustaqil fikrlashga bahs munozaraga, o‘zini–o‘zi tahlil eta olishga, egallagan bilimlarini amalyotga qo‘llay olish. Bola tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida o’quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z - o'zini nazorat, o'z - o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr - mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini ximoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

“Qor bo’ron” metodi ikkiga ajratilgan guruh o`quvchilari bir muammo yuzasidan eng ko’p to’g’ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to’g’ri javob yumaloqlangan qor ko’rinishida o’sha guruh hisobiga yozib qo’yiladi; to’plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi. Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo’lishi mumkin. Guruhlar qo’yilgan muammoni ma’lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma’lum qilishadi. Muammo yechimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

Masalan: Bu metoddan adabiyot fanidan “Ahmad Yassaviyning hikmatlari” haqida tushunchasini hosil qilishda foydalanish mumkin. Bunda o’quvchilarga quyidagi savolni beriladi:

- Ahmad Yassaviyning hayot ijodi haqida nimalarni bilasiz?

Ularning javobini doskaga yozib boriladi. Shundan so’ng o’quvchilar Ahmad Yassaviyning hayot ijodi haqidagi ma’lumotlarni bir bir ayta boshlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot - darslarni hayotga bog‘lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni adabiyotga bag’ishlangan o‘yinlar egallaydi. Adabiyot o‘yinlar nihoyatda xilma-xil bo‘lib, darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni qiziqarli bo‘lishida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar.**

1.O.U.Avlayev, S.N. Jo’rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o’quv-uslubiy qo’llanma, “Navro’z” nashriyoti, Toshkent – 2017

# KIMYO FANINI O’QITISHDA “QARORLAR SHAJARASI” INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Hajiyeva Gulora Erkaboyevna**
TTA Urganch filiali tabiiy fanlar kafedrasi
kimyo fani bosh òqituvchisi
**G‘ayipova Nafisa Baxtiyorovna**
Xonqa tuman 24-son maktab kimyo fani o’qituvchisi

*Annotasiya:* Ushbu maqolada kimyo fanini o’qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash, dars o’tish jarayonida aynan dars mavzusiga mos interfaol metodlarni qo’llay olish va yangi interfaol metodlarni ta’lim tizimiga joriy qila oladigan ma’lumotlar berilgan.
*Kalit so’z:* ta‘lim, interfaol, suhbat, ijtimoiy, pedagogik, texnologiya, metod.

“Qarorlar shalarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirib, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh yoki sinf o‘quvchilari ishtirokida qo‘llaniladigan “Qarorlar shalarasi” bir necha o‘n nafar o‘quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta’lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda no maqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar **MUAMMO 1-G‘OYA+2- G‘OYA+3- G‘OYA QAROR** tizimi faoliyat olib borishadi.

“Qarorlar shalarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo‘llaniladi:

1.O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchunmazvuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosaalarni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi.

2.O‘qituvchio‘quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3.Qarorni qabul qilinish jarayonida guruhlarning har a’zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a’zolari bir to‘xtamga kelib oladilar.

4.Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a’zolari o‘z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o‘qituvchi rahbarligida barcha o‘quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan xulosa (qaror)lar borasida savollar tug‘ilgudek bo‘lsa, ularga javoblar qaytarilib beriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo‘lsa, o‘qituvchi buning sababini izohlaydi.

“Qarorlar shalarasi” metodining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, bu bevosita ma’lum loyiha asosida qo‘llaniladi. Mazkur loyiha quyidagi ko‘rinishga ega:

| “Qarorlar shalarasi” metodi | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Umumiy muammo | | | | | |
| 1-qaror varianti | | 2-qaror varianti | | 3-qaror varianti | |
| Afzalligi | Kamchiligi | Afzalligi | Kamchiligi | Afzalligi | Kamchiligi |
| | | | | | |
| Qaror: | | | | | |

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o’qitish texnologiyalari. – T.: ―Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2007.

2.Ziyomuhammadov B, Abdullaeva Sh., Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2001.

# MAKTABDA JISMONIY TARBIYA FANINI O`QITISHDA FIKRLARNING SHIDDATLI HUJUMI METODIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Ibadullayev Anvar Odilbek o‘g‘li,**
**Abdullayeva Moxira Ozodovna**
Xonqa tumani 24-son maktabning
jismoniy tarbiya fani o’qituvchilari

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada barcha fanlardagi kabi, jismoniy tarbiya fanidan ham yangi avlod uchun yangi metodlar yaratilib, unda mazmunan o‘zgartirishlarga yangicha yondoshildi va o’qituvchilarga metodik tavsiyalar berilgan.

*Kalit so’z:* interfaol metod, jismoniy tarbiya, o`quv jarayoni, innovatsiya.

O‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, mushohada qilishga, mutolaa qilishga o‘rgatishda o‘qituvchilar oldida katta mas’uliyat qo‘yiladi. O‘qituvchi o‘qitishdan o‘qishni o‘rgatishga, bilim berishdan o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashlariga yodam berishi lozim. Ya’ni o‘qituvchi o‘quvchini ehtiyoj tug‘dirishdan, muhit yaratishga va undan mas’uliyatni his qilishni o‘rgatish kerak.

**«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi.** Mazkur metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta’lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish hamda ta’lim oluvchilarda ma’lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga 2 qarshi g‘oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir. Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg‘ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

1-bosqich. Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’lim oluvchilarni o‘zida biriktirgan hamda son jihatdan teng bo‘lgan kichik guruhlarni shakllantirish.

2-bosqich. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3-bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g‘oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to‘g‘ri hal etilganligiga ko‘ra turkumlarga ajratish.

5-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya’ni ularni to‘g‘rilik darajasi, yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish. Yuqorida mohiyati bayon etilgan «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo‘nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida birdik muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin. Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

1. O‘quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish;
2. Vaqtni iqtisod qilish;
3. Har bir o‘quvchini faollikka undash;
4. Ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish. Ko‘rinib turibdiki ushbu metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish, vaqtni iqtisod qilish, har bir ta’lim oluvchini faollikka undash, ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirishga yordam beradi. Maskur uslublardan tashqari juda ko‘p metodlar ham mavjudki ulardan o‘qituvch dars mavzusiga mos uslubni tanlay bilishi o‘ta muhimdir. Quyida keltiriladigon dars ishlanmalar namuna sifatida berilmoqda. Keltirilgan mavzular ayrim maktablarda o‘qituvchining darsni tashkil etish mahoratiga qarab o‘quvchilar tomonidan yengil o‘zlashtirilishi mumkin. Aksariyat o‘quvchilar tomonidan mazkur darslarni o‘zlashtirishi qisman qiyin kechayotgani tajribada

korilmoqda. Suningdek, dars ishlanmani turli usulda shakillantirishni mumkinligi e’tiboringizga havola etildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.Toshkent: O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006.
2. Farberman. B.L . “Ilg’or pedagogik texnologiyalar”. T: 2001 y.
3.Yo’ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: RTM, 2004. - 104 b.

# BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR

**Ibragimova Aziza Solmonjonovna**
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani
53-sonli maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda sinfdan tashqari mashg’ulotlarning ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan va bu jarayon matematika fani misolida tushuntirib berilgan.
**Kalit so’zlar**: matematika, sinfdan tashqari mashg’ulotlar, to’garak, fakultativ mashg’ulotlar, dars, iqtidor, qiziqish, bilim, boshlang’ich sinf, o’quvchi.

Boshlang'ich sinf fanlari orasida o'quvchilar uchun matematika fanini o'zlashtirish qiyinroq bo’ladi. Shu sababli bu fanni o'quvchilarga o'rgatish ko'p vaqt va mehnat talab qiladi. O'quvchilarning matematikadan savodxonligini shakllantirish hamda yaxshilash maqsadida matematikadan to'garak ishlari, sinfdan tashqari mashg'ulot hamda fakultativ mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Ayni vaqtda Respublikamiz ijtimoiy hayotiga shidddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamli qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor suratda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan qayta umumlashtirish, xulosalash hamda tinglovchiga yetkazib berishni yo’lga qo’yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlariga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. O'qituvchini samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o’laroq, ta'lim texnologiyasi texnologiyalar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u tinglovchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart- sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda o'quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil etilgan mashg'ulotlarni tushunamiz. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi matematik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishda foydalanish mumkin.

Matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarga quyidagilar misol bo'la oladi:
- matematik 10 daqiqa;
- qiziqarli matematik soatlar;
- matematika to'garagi;
- matematik viktorinalar;
- matematik ro'znoma;
- matematik musobaqa;
- matematikadan ekskursiyalar o'tkazish.

Yuqorida sanab o'tilgan mashg'ulotlarning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:
- o'quvchilarning bilimlarini va amaliy malakalarini chuqurlashtirish va kengaytirish;
- mantiqiy tafakkurni, topqirlikni, matematik ziyraklikni rivojlantirish;
- iqtidorli va qobiliyatli bolalarni aniqlash va ularni yanada o'sishiga yordam berish;
- matematika faniga qiziqishni shakllantirish;
- o'quvchilarni intizomli bo'lishga, mehnatga mehr qo'yishga, jamoa bilan ishlay olish ko'nikmalarini tarkib topdirishga, ularda umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

Shuningdek, ushbu mashg'ulotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda, ularga kasb-hunar tanlashga oid bilim berishda yuqori natijalar beradi. Ayniqsa, iqtidorli o'quvchilarda fanga qiziqishi, dunyoqarashi zehni namoyon bo'ladi.

Boshqa fanlar qatori matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda birinchi navbatda matematikaga iqtidori va qiziqishi bo'lgan o'quvchilar aniqlanadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda darslardagi o'quv materiallarini takrorlanmaydigan, lekin mustahkamlashga xizmat qiladigan murakkab ko'rinishdagi o'quv materiallari o'rganiladi.

Matematikadan darsdan tashqari mashg'ulotlarning yana bir ahamiyatli tomoni shundan iboratki, bu mashg'ulot faqatgina o'qituvchi tomonidan tashkil qilinmaydi. Mashg'ulotlar bevosita

o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida olib boriladi. Bu esa o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o'quvchi bu mashg'ulotlarda o'zini ancha erkin his qiladi hamda uning matematik nutqida ijobiy o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning bo'sh vaqti mazmunli o'tishini ta'minlaydi. Bu esa hozirgi axborot texnologiyalari davrida dolzarb muammo hisoblanib, o'quvchining bo'sh vaqtini qoldirmaslikka katta e'tibor bo’ladi. Shu sababli ham maktablarda turli sport to'garaklari va mashg'ulotlari bilan birgalikda fan to'garaklari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimli tarzda olib boriladi. Bu bilan o'quvchilarni darslardagi faollik darajasi ham o'sish bilan birgalikda ularning turli musobaqalar va fan olimpiadalarida ko'rsatayotgan natijalari ham yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning tashkil etilishi boshlang'ich bilim va ko'nikmalarning mustahkamlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga bu mashg'ulot boshlang'ich matematika bilimlari poydevorini ta'minlab beradi. Shu sababli ham maktablarda olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratish lozim hamda bu mashg'ulotlarda interfaol usullar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. H.A.Muslimov va boshqalar "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" o'quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2016.

2. M.E.Jumayev va boshqalar. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitsh metodikasi", Toshkent, 2005.

3. J.Boltayev, A.Qodirov. "Boshlangich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar", Toshkent, 2002.

# MAKTABDA BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QISH FANINI O’QITISHDA “SUHBAT” INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Jumaniyazova Nodira Karimovna**
Xorazm viloyati xiva tumani 11- sonli maktabning
boshlang'ch sinf o'qituvchisi

***Annatotsiya:*** Bugungi zamonaviy ta’limni interfaol metodlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Dars mazmunini ochib beruvchi faol usullar ham o’quvchiga ham pedagogga amaliy ko‘makchi vazifasini o‘tamoqda. An’anaviy darsdan farqli o‘laroq metodlar dars jarayoniga jon kiritib, eng muhimi o‘quvchi ongni o‘stirmoqda. Maqolada ham ushbu metodlardan namunalar asosida izlanishlar olib borilib ahamiyati tahlil qilingan.

***Kalit so‘zlar:*** interfaol metod, talaba, seminar, dars, ta’lim-tarbiya

Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashqiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

Interfaol o’qitishning asosiy mohiyati o’qitish jarayonida barcha o’quvchilar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqea va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo’llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi.

Maktabda o‘qitiladigan har qanday fandan beriladigan bilim, tarkib toptiriladigan ko‘nikma va malakalarning shakllantirilishida turdosh o‘quv fanlarning o‘zaro uyg‘unlikdagi imkoniyatlaridan yetarlicha fodalanishning ahamiyatini chuqur anglab yetmog‘imiz har bir pedagog va tarbiyachi o‘zining kundalik pedagogik faoliyatini o‘z fani doirasida fanlararo aloqani amalga oshirishga yo‘naltirish zarur va muhim masalalar tarkibiga kiradi.

Boshlang’ich sinflarda o’qish fanlarni o‘qitish jarayoniga ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish tabiiy fanlar mazmunini yangilash, ularning asoslari borasida o‘quvchilarga chuqur nazariy bilimlarni berish, nazariy bilimlar asosida amaliy faoliyat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Tabiatshunoslik fanlarni o‘qitish jarayoniga yangi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish shaxs kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi mustaqil fikr yuritish, o‘z ustida ishlash, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish kabi xislatlarning ham shakllanishiga zamin yaratadi.

*Suhbat metodi o’qituvchining* o’quvchilar tomonidan yangi mavzu mazmunidagi qonuniyat, tushuncha va atamalarning izchillikda faol o’zlashtirishini ta’minlovchi puxta o’ylangan savollar vositasida ishlashini nazarda tutadi. Suxbatning o’quv jarayonida qanday o’rin egallashi va qanday didaktik maqsad mo’ljallanganligiga qarab: kirish suxbati, takrorlovchi suxbat, bayon qiluvchi suxbat va yakunlovchi suxbat kabilarga bo’linadi.

Suhbat metodi yordamida o’quvchilarning avval o’zlashtirgan bilim va ko’nikmalari faollashtiriladi, ta’limga solinadi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi va yangi o’rganilayotgan tushuncha bilan o’zaro aloqadorligi yoritiladi. Shuni qayd etish kerakki, o’quvchilarning avval o’zlashtirgan bilimlari asosida yangi mavzuni savollar yordamida o’zlashtirish imkonini beradigan mavzular suhbat metodi vositasida o’rganish tavsiya etiladi. Suhbat metodi o’quvchilarning nazariy bilimlarni o’zlashtirish jarayonini yoritishi, o’quvchilarning avval o’zlashtirgan bilim va ko’nikmalari, hayotiy tajribalaridan foydalanib, qator savollar yordamida yangi bilimlarni o’zlashtirgan, mazkur bilimlardan amaliyotga qo’llashni anglab olishiga zamin tayyorlashni ko’zda tutadi. Suhbat metodi o’quvchilarning nazariy bilimlarni o’zlashtirish uchungina emas, balki ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, nutqini rivojlantirish, taqqoslash, taxlil qilish, mantiqiy fikr yuritish ko’nikmalarini tarkib toptirishga yordam beradi. Mazkur metod tarkibiga suhbat savollarini ketma-ketlikda qo’yish, yordamchi va qo’shimcha savollarni o’z vaqtida berish, o’quvchilarni faollashtirish, o’quvchilar javobidagi xatolarni to’g’rilash, xulosa va umumlashirishni tarkib toptirish uslublari kiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o‘zbek tili, ingliz tili (5-9 sinflar). – Toshkent. 2016.

# MAKTABDA TARIX FANIDAN O’QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH, RAG’BATLANTIRISHDA INTERFAOL USULIDAN FOYDALANISH

**Jumaniyazova Shirinjon Erkinovna**
Xonqa tumani 24- sonli
maktabning tarix fani o’qituvchisi

*Annotatsiya*: Bu maqolada tarix fanini o’qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash, dars o’tish jarayonida aynan dars mavzusiga mos interfaol metodlarni qo’llay olish va yangi interfaol yordamida o’quvchilarni bilimini baxolash ko’rsatib berilgan va metodik tavsiyalar berilgan.

*Kalit so’z:* tarix, interfaol, pedagogik, metod, texnologiya, ta’lim, o’qitish.

Har bir darsda ta’limning aniq maqsadi belgilanishi o‘qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo‘yicha o‘qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi. Darhaqiqat, har qanday fan o‘zining paydo bo‘lgan vaqtidan boshlab katta bilimlar hajmini to‘plagan va u yuqori tezlikda boyitib bormoqda. O‘qitish faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o‘quvchining o‘zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ular hajmini miqdoriy o‘lchamga keltirish zarur.

Tarix fanidan o’quvchilar bilimini baholash, rag’batlantirishda “sirli baho” usulidan foydalanish juda samara beradi.

Butun dars davomida faol o’quvchilar berilgan barcha mashiqlarni to’g’ri va tez ishlab boradilar. Sust o’zlashtiruvchi o’quvchilar esa, aksincha bir -ikkita mashiqlarni to’g’ri ishlay oladilar-u, shu to’g’ri ishlangan mashiqlari uchun namunali baho olishni istaydilar.

Bu vaqtda o’qituvchi o’quvchilar bilimini baholashga qiynaladi. Chunki kam mashiqlarni ishlasada, bu o’quvchilar ham mashiqlarni to’g’ri ishlagan bo’ladi. Quyidagi metodni qo’llash orqali bu muammoni bartaraf etish va o’quvchilarning darsga qiziqishini yanada oshirish mumkin.

O’qituvchi tarix darsi mavzusini e’lon qiladi. Mavzu yuzasidan kerakli so’zlar va ularning ifodalari haqida batafsil ma’lumot beradi.

Shundan so’ng savollarga javob berish boshlanadi. 1- savol e’lon qilinadi. Savollarni to’g’ri va tez ishlagan o’quvchilar daftariga o’qituvchi baho emas, balki “B” harfli belgini qo’yadi. Keyin 2-mantiqiy savolni ishlashga kirishadilar. Bu savollar uchun “I” harfi bilan belgi qo’yiladi. 3-savol uchun “L” harfi va h.k. Shu tariqa keyingi savollarga javob berib boriladi.

Agar bitta o’quvchi dars davomida berilgan hamma savollarni to’g’ri va tez ishlasa, ( bu darsda 8 ta savollar ) ketma-ket ball o’rniga “namunali” so’zini hosil qiluvchi harfli belgilar qo’yib boriladi. Dars yakunida “Bilimdon” so’zining barcha harflarini ( hech bo’lmaganda 7 tasini ) to’plagan o’quvchilarga “Tarix fanidan namunali o’quvchi” deb yozilgan rag’bat kartochkasi beriladi va “5” baho bilan baholanadi.

Dars davomida “Bilim” harflarini to’play olgan o’quvchilarga “Tarix darsida yaxshi qatnashchi” kartochkasi beriladi va “4” baho bilan baholanadilar.

Dars davomida 4 tagacha savolga javob bera olgan o’quvchilarga “Tarix qiziqarli fan. O’z ustingizda ishlang.” Kartochkasi beriladi va bu o’quvchilar “3” baho bilan baholanadilar.

Bu metodni qo’llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. O’quvchilar sirli harflarini yig’ishga qiziqib, savollarni tezroq yechishga intiladilar, o’z ishlari natijasi bilan qiziqadilar.
2. Hatto “3” baho olgan o’quvchi ham bu bahodan norozi bo’lmaydi, aksincha, nima uchun past baho olganligini tushunadi va o’z ustida ishlashni boshlaydi.

Bu metod bilan tarix fanidan o’quvchilar bilimini baxolash va rag’batlantirish, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. J. F. Yuldoshev, “Yangi pedagogik texnologiya yunalishlari, muammolari, echimlari". “Xalk ta'limi" jurnali, T., №4 1999 yil.
2.Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o`qitish texnologiyalari. – T.: ―Fan va texnologiyalar// nashriyoti, 2007
3.Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: ―Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2011.

# TA`LIM TEXNOLOGIYALARI – ZAMON TALABI

**Karimova Sevara Markarim qizi**
Xorazm viloyati Urganch shahar
19-IDUM ning informatika va axborot
texnologiya fani o'qituvchisi
**Saidova Dilnozaxon Baxtiyarovna**
Xorazm viloyati Urganch shahar
29 son umumiy o'rta ta'lim maktabining
informatika va axborot texnologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limda axborot texnologiyalarini o'rni, dars mashg'lotlarida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali dars sifati va yoshlarni IT sohasiga qiziqishlarini oshirish, bundan tashqari ta'limda multimedia vositalarini afzalliklari tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** Axborot, kommunikatsiya, texnologiya, audio signal, video signal, multimedia, individual, motivasiya, kompyuter, informatika.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari, muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

1) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o`zlashtirish imkoniyati bor;
2) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:
3) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
4) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo`llash imkoniyatiga erishiladi. Informatika va axborot texnologiyalari fundamental fan sifatida kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan ob'ektlar bilan boshqaruv jarayonlarini axborot jihatidan ta'minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Shunday fikr ham mavjudki, fanning asosiy vazifalaridan biri — axborot tizimlari nima, ular qanday o'rinni egallaydi, qanday tuzilmaga ega bo'lishi lozim, qanday ishlaydi, uning uchun qanday qonuniyatlar xos ekanligini aniqlashdir. Yevropada informatika sohasida quyidagi asosiy ilmiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin: tarmoq tuzilmasini ishlab chiqish, kompyuterli integratsiyalashgan jarayonni ishlab chiqarish, iqtisodiy va tibbiy informatika, ijtimoiy sug'urta va atrof-muhit informatikasi, professional axborot tizimlari. Multimedia tizimining paydo bo'lishi ta'lim, fan, san'at, kompyuter treninglari, reklama, texnika, tibbiyot, matematika, biznes, ilmiy tadqiqot kabi bir qancha kasbiy sohalarda revolyutsion o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib keldi.

Kompyuterlarni ta'lim tizimida qo'llash g'oyasi ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lgan bo'lsada,

ta’lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo’llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo’lgach to’liq ma’noda amaliyotga joriy etilib boshlandi. Multimedia vositalarini ta’limda qo’llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta’limning gumanizasiyalashuvini ta’minlash;
- ta’lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o’zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta’lim olish, o’zini o’zi tarbiyalash, o’zini o’zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo’llay olishi, o’rganishga bo’lgan qiziqishi, mehnatga bo’lgan munosabati);

Multimedia vositalari har xil ta’lim yo’nalishlari (stillari) uyg’unligida qo’llanilishi va ta’lim olish hamda bilimlarni qabul qilishning turli ruhiy va yoshga doir hususiyatlariga ega bo’lgan shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin: ayrim ta’lim oluvchilar bevosita o’qish orqali, ba’zilari esa eshitib idrok etish, boshqalari esa (videofilmlarni) ko’rish orqali ta’lim olishni va bilimlarni o’zlashtirishni xush ko’radilar. Interfaol multimedia texnologiyalari akademik ehtiyojga ega bo’lgan ta’lim oluvchiga noan’anaviy qulaylik tug’diradi. Xususan, eshitish sezgisida defekti bor ta’lim oluvchilarda fonologik malakalar va o’qish malakalari o’sishiga, shuningdek, ularning axborotlarni vizual o’zlashtirishlarini ta’minlaydi. Nutqi va jismoniy imkoniyati cheklanganlarda esa vositalardan ularning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib foydalanishga imkon beradi. Multimedia vositalari ta’lim berishning samarali va istiqbolli quroli (instrumentlari) bo’lib, u o’qituvchiga an’anaviy ma’lumotlar manbaidan ko’ra keng ko’lamdagi ma’lumotlar massivini taqdim etish; ko’rgazmali va uyg’unlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animasiyalar, video va boshqalardan foydalanish; axborot turlarini ta’lim oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o’rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. «O’zbekistan Respublikasini yanada riyojlantirish bo’yicha xarakatlar strategiyasi to’grisida»gi F-4947-sonli Farmoni.
2. O’zbekistan Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent oqshomi. 2020 yil, 25 yanvar. № 13 (14064).
3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qilish tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. -T.: O’zbekiston, 2017
4. S.S.G'ulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologivalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik / Akademik S.S. G'ulomovning unuimiy tahriri ostida. - T., «Sharq», 2010.
5. The pedagogy of Ihe Massive Oen Online Course: the UK view. Sian Bayne and Jen Ross, the University of Edinburgh. The Higher Education A cad emy .2013.
6. www.lex.uz.
7. www.ziyonet.uz

# MAKTABDA RUS TILI FANINI O’QITISHDA STRUKTURAVIY USULIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO’LLARI

**Madaminova Saida Rajabovna**
**Masharipova Gulzada Ganjayevna**
Xonqa tuman 24- son maktabning
rus tili fani o’qituvchilari

*Annotasiya:* Ushbu maqolda interfaol ta‘lim metodlarining hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta‘lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan biri ekanligi hamda ularni rus tili fanini o’qitishdagi samarasi haqida ma’lumotlar berilgan.

*Kalit so’z:* Interfaol, kollej, litsey, ta‘lim, tarbiya, metod, maktab, bilim.

Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta‘limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktab, kollej, litsey, keyinchalik institutlarda, o‘quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o‘rganishga yordam beruvchi asosiy ma‘lumot to‘plamlari bilan tanishgan holda o‘rganadilar.

Turli usullarni birlashtirib o‘qituvchi muayyan ta‘lim dasturlarini yechishga qodir bo‘ladi. Shu munosabat bilan o‘qituvchilar va talabalar xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish ko‘nikmalari shakillanadi.

Maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim va tarbiya tizimida rus tili darslaridan foydalanish tajribasini umumlashtirmasdan mumkin emas. Rus tili, uning rivojlanish tarixi, xalq madaniyati va kundalik hayotini o'rganish nafaqat talabalarning rus tilini o'rganishga qaratilgan faoliyati, balki chet tilini o'qitishni ta'minlaydigan va maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini aniq hayotiy material bo'yicha rivojlantirish shartlaridan biri sifatida qaralishi kerak.

Metod haqida emas, balki strukturaviy modellarni ishlab chiqish mashqlariga asoslangan usullar haqida gapirish to'g'ri bo'lar edi. Ko'pincha bu usullar 1916 yilda nashr etilgan birinchi qidiruv jadvallari muallifi X. Palmer nomi bilan bog'liq. Ushbu usullar quyidagi harakatlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi:

1) grammatik tuzilishga ega nutq namunalarini u yoki bu ketma-ketlikda tinglash.

Masalan :

Эта книга / ручка / правитель / ребенок / и так далее.

это не книга / ручка / правитель / ребенок.

Это моя книга / моя ручка / мой правитель.

Это книга / ручка / сын?

2) o'qituvchi yoki ma'ruzachi tomonidan namunalarni xor va individual o'qish.

3) Ishlab chiqilgan tuzilmalar yordamida o'qituvchi bilan va juftlikda savol-javob mashqlari.

Masalan :

Это книга?" Да все верно." / Нет, это не так.

4) Ko'p tuzilmalar bilan ta'limiy dialog**.**

Ushbu usulning afzalliklari:

- grammatik tuzilish uzoq va maxsus tayyorgarlik ob'ektiga aylanadi;
- o`quvchilar dinamik stereotipni, tayyor grammatik tuzilmani nutqda avtomatik ravishda ishlatishga qobiliyatlarini rivojlantiradi, chunki u bilan bir xil turdagi harakatlarni takrorlash chastotasi uni ajralmas butun sifatida xotirada o'rnatadi.

O'smirlarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish ijodiy fikrlashni rivojlantirishga va ayniqsa, shunga o'xshash narsalarga asoslangan **komponentlar** kabi:

**Analitik komponentlar -** shunga muvofiq, kontseptual va mantiqiy fikrlash - izchillik, harakatchanlik, selektivlik, assotsiativlik, aql, farqlash qobiliyati va hk.;

**Hissiy komponentlar** (hissiy - majoziy fikrlash): tasvirlarning yorqinligi, voqealarni, faktlarni,

hodisalarni hissiy baholash va boshqalar.

**Ijodiy komponentlar** (vizual-samarali fikrlash): oqilona echimlarni izlash, nostandart (individuallik, o'ziga xoslikning namoyon bo'lishi, stereotiplardan xalos bo'lish), natijani oldindan bilish qobiliyati, faoliyatdagi eng yaxshi bilim va ko'nikmalarni sintez qilish istagi, mumkin bo'lgan variantlardan eng maqbul echimni tanlash va to'g'ri tanlovni asoslash qobiliyati.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (1999 yil 16 avgust) //Xalq ta’limi j. 1999. № 5

# MAKTABDA TEXNOLOGIYA FANINI O’QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

**Matkarimov Ikromboy Karimbayevich**
Xorazm viloyati xiva tuman
12-sonli maktabning texnologiya fani o'qituvchisi.
**Avazov Rasulbek Yuldashbayevich**
Xorazm viloyati xiva shaxar
IDUM ning texnologiya fani o'qituvchisi.

*Annatotsiya:* Ushbu maqolada maktabda o’quvchilarning texnologiya faniga bo’lgan qiziqishini oshirishda va texnologiya fanini o’rgatishda interfaol metodlarning samarali usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan.
*Kalit so’z:* Interfaol, ta’lim, oyin, amaliy, vosita, didaktik, pedagogik.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan jamiyatning barcha jabhalari, xususan, ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnalogiyalaridan keng foydalanishni yo’lga qo’yishga qaratilayotgan e’tibor samarasi o’laroq, bugun jamiyatning barcha sohalari va xalqimiz turmush tarziga kompyuter texnalogiyalari chuqur kirib borayapti. Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi.

Mohiyatiga ko`ra interfaollik o’quvchilarning bilim, ko`nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o`zlashtirish yo`lida birgalikda, o`zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub‘ektlarning suhbat (dialog), o`zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Bugungi kunda amaliy o`yinlar, muammoli o`qitish, interfaol ta‘lim, modul-kredit tizimi, masofali o`qitish, blended learning (aralash o`qitish) va mahorat darslari ta‘limning innovatsion shakllari sifatida e‘tirof etilmoqda.

O`yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko`chirish, taqlid qilish) asosida o`zlashtirish shakli sanaladi.

Amaliy o`yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o`yinlar.

Ta‘lim amaliyotida qo`llaniladigan amaliy o`yinlar o`z-o`zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko`p holatlarda ―didaktik o`yinlar deb yuritiladi.

Didaktik o`yinlar – o`rganilayotgan ob‘ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o`quvchilarning bilishga bo`lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o`quv faoliyati turi hisoblanadi.

*“Kamalak” usuli.* Bu usulni biror bob yoki bo’lim yuzasidan o’tkazish mumkin. Bunda birinchi ustindagi asosiy tushunchalar har xil ranglarda beriladi. Jadvalning qolgan qismlarida so’zlar aralash yozilgan bo’ladi. O’quvchilar ushbu tushunchalarni asosiy tushuncha ranglariga mos ranglarda ifodalahslari shart.Bunda jadval bo’yatiladi yoki yopishuvchi rangdor qog’ozlar to’plamidan foydalanib to’ldiriladi. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, bir paytning o’zida 9 nafar o’quvchining bilimi sinab ko’riladi.

*“Kim ko‘p biladi”* o‘yini. Bu o‘yinni kimyoning xohlagan mavzusini o‘rganishda qo’llash mumkin. Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog‘ozlarni o‘qituvchiga topshiradilar, sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linadi. Boshqaruvchi qo‘llarni sanab, har biriga 1 balldan qo‘yadi. Har bir savolga bir o‘quvchidan javob so‘raladi. Agar javob noto‘g‘ri bo’lsa, o‘sha guruhdan 1 ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko‘p ball to‘plasa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

*“Topib ko’rchi” usuli***.** Bunda o’quvchilardan bir nafari doskaga chiqadi. Kimyo fanga oid rasmlardan birini doskadagi o’quvchi orqasidan o’tirganlarga ko’rsatadi. O’tirgan o’quvchilar shu rasmga tegishli tushunchalarni ayta boshlaydi. Doskadagi o’quvchi rasmda nima tasvirlanganligini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. R.Ishmuhammedov “O’quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo’llash uslubiyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.
2.Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: ―Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2011.

# BOSHLANG’ICH SINF O`QUVCHILARI DARS JARAYONLARIDA INTERFAOL METODLARNING AFZALLIGI

**Matkarimova Mardona Jumanazarovna**
Xorazm viloyati xiva tuman 11- sonli maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarida dars jarayonida o`quvchilarning bilim va ko’nikmalarini shakllantirishda innovasion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan. Didaktik vositalardan foydalanishda o’quvchilarning psixologik, yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi misollar asosida isbotlangan.

*Kalit so’z:* tarbiya, huquq, psixologik, yosh, guruh, didaktik, o`quvchi, fan.

O’qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko’rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o’zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo’yicha muvozanatlashtirish demakdir . Pirovard natijasida talabalar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta’minlashga sharoit yaratiladi.To’g’ri qo’llanilgan metodlar ob’ektiv voqelikka oid bilimlarmi chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg’ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi . Ketma-ket saralangan o’qitish metodlari ma’lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga , mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi. Ta’lim mazmuning interfaol metodlar bilan aloqasi. Shunday qilib, biz o’qitish metodlarini tanlashni takomillashtirishning birinchi muhim shartini ularni tizimlashni , o’quv jarayonini rejalashtirish muolajalariamaliyotida qo’llash bilan bog’liqlikni aniqlashtiradigan yaxlit yondashuvni tavsifladik.

Deduktiv metodda o‘quvchilar avval umumiy qonunlarni o‘rganadi, so‘ngra umumiydan xususiy xulosa chiqarishga o‘rgatiladi. Deduktiv yo‘l bilan sudralib yuruvchilarning quruqlik muhitiga, qushlarning havoda uchishga moslanishi mavzusida ham qo‘llash mumkin.

«Dumaloq stol» metodi: Topshiriq yozib qo’yilgan qog’oz varag’i davra bo’lab aylantiriladi. Har bir o`quvchi o’zining javob variantini yozib qo’ygach, varaqni boshqa o`quvchiga uzatadi. Keyin muhokama bo’ladi: noto’g’ri javoblar o’chiriladi, to’g’ri javoblarning soniga qarab o`quvchining bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og’zaki shaklda ham qo’llash mumkin. Berilishi mumkin bo’lgan topshiriqlarga misollar:

– tarbiyaning tarkibiy qismlari qaysilar?;
– aqliy tarbiyaning hozirgi davr talabi nimada?;
– axloqiy tarbiya vazifalari qaysilar?;
– ekologik tarbiyaning mohiyati nimada?;
– mehnat va iqtisodiy tarbiyaning muhim vazifalarini izohlang;
– estetik tarbiyaning vazifalarini ayting;
– jismoniy tarbiyaning bugungi kundagi ahamiyati;
– huquqiy tarbiyaning muhim belgilari qaysilar?

Shuni esda tutish kerakki, yaxshi qo’yilgan savol, bu – javobning yarmisini o’zida jo etgan savoldir.

Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o’quv jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o’quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o’quvchi chetda qolmay, eshitgan, o’qigan, ko’rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. O’zaro fikr almashish jarayoni sodir bo’ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o’zaro do’stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta’lim o’z xususiyatiga ko’ra didaktik o’yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o’z ichiga oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hasanboyev J., To’raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug’at. T.:Fan va texnologiya, 2009.-b.348.
2. Sharipov Sh. Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. // Monografiya. – T.: Fan, 2005. – 136 b.

# MAKTABDA BOSHLANG’ICH SINF O`QUVCHILARINI O’QITISHDA “MUAMMOLI VAZIYAT” USULIDAN FOYDALANISH VA UNING SAMARASI

**Matkarimova Xadichaxon Masharipovna**
Xorazm viloyati xiva tumani 11- son maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

***Annotatsiya:*** Bu maqolada innovatsion usullarni qo’llashda dars o’qitilganda sinfda qoloq, mavzuni o’zlashtirmaydigan o’quvchini ham o’ziga jalb qilishi va darsni juda qiziqarli o’tishiga qaratilgan ma’lumotlar qamrab olgan.

***Kalit so’zi:*** o’yin, o’quvchi, o’qish, usul, metod, texnologiya, vaziyat.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma‘naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta‘lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, ularda jamiyat hayotini o`zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta‘lim tizimidan, bog`cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko`ramiz. Chunki maktabni o`zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o`zgartirib bo`lmaydi. Ta‘lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab.

“Muammoli vaziyat” usuli – ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usuldir. “Muammoli vaziyat” usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi zarur. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmaslik, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” usuli qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” usulining bosqichlari:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda muammoning oqibatlari to'g'risidagi fikr-mulohazalarni taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama va tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

O'qituvchi barcha o'quvchining javobini umumlashtirish jarayonida quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim:

1. Muammoli savolga aniq javob topishga undash.
2. Muammoga aloqasi bor deb o'ylagan barcha fikrlarga e'tibor qaratish.
3. Ko'rgan, eshitgan, o'qiganlari asosida mustaqil fikrlarini aytish, o'z bilimlarini baholay olishga sharoit yaratish.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. R. Ishmuhammedov “O’quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik.
2. Yo’ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: RTM, 2004. - 104 b.
3. 1.R.H. Jo’raev, A. Zushunov “Ta’lim jarayonida o’quv fanlarini integratsiyalash omillari. O’qituvchilar uchun o’quv qo’llanma”. Sharq., 2006 yil.

# KIMYO DARSLARIDA “AYLANA STOL ATROFIDA” METODINI QO’LLASH TEXNOLOGIYASI

**Matyakubova Maxidil Hojaboyevna**
Gurlan tumani 24-son maktab oʻqituvchisi
Telefon: +998 (93) 288 70 29
matyakubova.maxidil_24@inbox.uz

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola “Aylana stol atrofida” metodi orqali kimyo darslarini o’qitish haqida.

***Kalit so’zlar:*** Didaktik o`yin, ro`lli o`yin, teatrlashtirilgan dars, “Aylana stol atrofida”, ishchanlik o’yini.

Respublika prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’limini rivojlantirish, yosh avlodga jahon andozalariga mos bilim, iqtidor va ko’nikmalar berish, ularni ona Vatanga, milliy istiqlol g’oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida ko’rsatayotgan doimiy g’amxo’rligi tufayli ta’lim-tarbiya ishlarining bugungi qiyofasi tubdan o’zgardi. U mustaqillikka erishib, taraqqiyot yo’lidan dadil borayotgan mamlakatimiz ruhini, g’oyalari va intilishlarini o’zida aks etttirgan ta’lim tizimiga aylanmoqda. Eng asosiysi, mamlakatimizda ta’limning hali jahon amaliyotida kam uchraydigan betakror milliy modeli yaratildi.

Didaktik o`yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o`yinlardan iborat. Bu o`yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko`nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.Ishchanlik o`yin darsi – dars mavzusi bo`yicha masalalarni hal etish jarayonida o`quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o`zlashtirish mashqi.

Ro`lli o`yin darsi – dars mavzusi bo`yicha masalalarni o`rganishda o`quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro`lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustaxkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog`liq sahna ko`rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo`yicha chuqur, aniq ma’lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o`quv fani bo`yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o`quv kursi va shu kabilar) asosida o`tiladigan dars.

**“Aylana stol atrofida” metodi**

**“**Aylana stol atrofida**”** metodi asosida ishlash qoidalari

1. Birgalikda oʻrganish usuliga asoslanadi.
2. Qogʻoz va har xil rangdagi qalamlar kerak boʻladi.
3. Guruh a’zolari atrofida qogʻoz va qalam surilib boriladi.
4. Ishtirokchilar oʻrtaga tashlangan mavzuga oid yuqoridagi masala asosidamasala tuzadi
5. Guruhdoshiga uzatadi.
6. U ham tuzgan masalani boshqa rangdagi qalamda yozib keying ishtirokchiga beradi;
7. Ranglar turli boʻlishi har bir ishtirokchining shaxsiy fikrini, masala yuzasidan ishtirokini aniqlash uchun kerak boʻladi.
8. Fikrlar jamlanib, muhokama qilinib masalaning yechimi topiladi.

Masalan: “Kimyoviy reaksiya turlar” mavzusi yuzasidan masalalar tuzing?

Har bir oʻquvchiga bittadan oq qogʻoz beriladi, qogʻozda masalalar har xil rangli ruchkalarda yozib chiqiladi.

Birinchi guruh: 20 gr KMnO4 parchalanganda necha l n.sh.da kislorod ajraladi?

Ikkinchi guruh: masala guruh aʻzolari bilan birgalikda yechiladi va uchinchi guruhga masala tuzib beriladi. 3 g fosfor yonganda qancha p2O5 hosil boʻladi?

Uchunchi guruh: masala guruh aʻzolari bilan birgalikda yechiladi va birinchi guruhga masala tuzib berilad.

2 gr Al2O3 temir bilan qaytarilganda necha gr Al hosil boʻladi?

Har bir guruhga aytilgan topshiriqni bajaradi, o`qituvchi tomonidan tahlil qilinib, rag`batlantiriladi.

Bunday darslar o`quvchilarga fanlararo bog`liqlikni o`rgatish orqali ularda odam tuzilishining ilmiy asoslarini to`liq idrok etrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga hizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlarro’yhati:**

1.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. – T.: ―Iste‘dod‖ jamg’armasi, 2008.

2.Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: ―Fan va texnologiyalar‖ nashriyoti, 2011.

3.Ro’zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi Metod.qo’ll. – T.: Nizomiy nomli DTpU, 2013.

# MAKTABDA BOSHLANG'ICH SINFLARNI ONA TILI FANIDAN O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARASI VA UNDAN FOYDALANISH UCHUN METODIK TAVSIYALAR BERISH.

**Maxmudova Sadoqat Jabborovna**
**Durdiyeva Sanobar Shermamatovna.**
Xonqa tumani 24-maktabning
boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

*Annatotsiya:* Bu maqolada ona tili bolalarni tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi shuningdek, ona tili o`quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshirishi ularning o`z fikrlarini aniq, to`g`ri va tushunarli bayon etish uchun zamin hozirlashi haqidagi fikirlar bayon qilingan.
*Kalit so'zi:* diqqat, xotira, "Fikriy hujum", "6x6x6", "Klaster", metod, bilim.

"Interfaol" tushunchasi ingliz tilida "interact" (rus tilida "interaktiv") ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan "inter" - o'zaro, ikki taraflama, "act" - harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim — ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Boshlang'ich sinflarda ona tili, adabiyot, matematika va boshqa fanlardan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi.

"Fikriy hujum" metodi. Mazkur metod o'quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

"6x6x6" metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

"Klaster" metodi. Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

1.O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017

2. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (1999 yil 16 avgust) //Xalq ta'limi j. 1999. № 5

3. Abdullayeva K. va boshqalar. Savod o'rgatish metodikasi.T., «O'qituvchi», 1996-yil.18-25-betlar.

4. Jumayev M.E..Boshlangich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari T.: Yangi asr avlodi 2006.

# MAKTABDA O’QUVCHILARNI QIZIQISHINI OSHRISHDA « INSERT » INNOVATSION STRATEGIYASI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Otamurod Sardor Qutlimuratovich**
**Sobirova Azzatjon Madirimovna**
Xonqa tuman 24-son maktabning
matematika fani o’qituvchilari

***Annatotsiya:*** Ushbu maqolada bugungi kunda maktabda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasidagi ma’lumotlar qamrab olingan va o’qituvchilarga metodik tavsiyalar berish.

***Kalit so’zi:*** metodi, tajriba, fkir, o’quvchi, ta’lim, bilim, ijod, aqil, faoliyat.

Bugungi kunda mamlakatimizda bo`layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta’limtarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar “Milliy dastur”imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun o`qituvchisini yanada ko`proq mehnat qilishga, izlanishga da’vat etmoqda.

Strategiya o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyani qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

-kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi;

-har bir guruhlar o‘zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid 2 ta fikr bildirish so‘raladi; -o‘quvchilar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadildr;

-bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;

-so‘ngra o‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlarga tarqatadi;

-guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o‘zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o‘xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi);

— guruh a’zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;

— guruh a’zolari orasidan liderlar belgilanadi;

— liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar;

-guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

Strategiyani qo‘llashda o‘quvchilar quyidagi sxemalar bo‘yicha faoliyatini tashkil etadilar:

Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanadi:

| Maxsus belgilar | Maxsus belgilarning ma’nosi |
|---|---|
| Z | Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topgan bo‘lsa |
| S | Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topmagan bo‘lsa |
| ? | Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug‘ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa) |

Liderlarning hisobotidan so‘ng guruhlarning natijalarini o‘rganish chog‘ida:

| Maxsus belgilarning tartib nomeri | Guruhlar nomlari | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Ulug‘bek | Beruniy | Ibn-Sino | Ali-Qushchi |
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |

Strategiyani o‘quvchilar mantiqiy fikrlash, shaxsiy xatolar ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yo’ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: RTM, 2004. - 104 b.
2. “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (1999 yil 16 avgust) //Xalq ta’limi j. 1999. № 5

# MAKTABDA BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QISH FANINI O’QITISHDA KEYS-STADY TEXNOLOGIYASI

**Otayeva Gulxayo Jamalbekovna**
Xorazm viloyati Xiva tumani 11-son maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annatotsiya:** Bu maqolada o`qituvchining samarali faoliyat ko`rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqilgan bo’lib, ta‘lim texnologiyasi o’quvchilar faoliyatiga nisbatan yo`naltirilganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so’z:** keys, stadi, ta‘lim, interfaol, suhbat, ijtimoiy, texnologiya.

Keys-stadi inglizcha - case - aniq vaziyat, hodisa, - study - o‘rganmoq, tahlil qilmoq, ta‘lim so‘zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta‘lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta‘lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o‘quv jarayonida ma‘lum bir maqsadga erishish yo‘li sifatida qo‘llanilsa, metod xarakteriga ega bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma‘lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o‘zida aks ettiradi.

Keys – bu yaxlit axborotlar majmui. Qoidaga ko‘ra, keys uch qismdan iborat bo‘ladi:

1) keysni tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar; 2) aniq vaziyat bayoni; 3) keys topshirig‘i;

•Bosma holatdagi keys (uni yanada ko‘rgazmali bo‘lishini ta‘minlaydigan grafik, jadval, diagramma, illyustratsiyalarni ham o‘z ichiga oladi).

•Multimedia-keys (so‘nggi vaqtlarda keng qo‘llashni talab etayotgan.

•Video keys (film, audio va video materiallardan iborat bo‘lishi mumkin).

KEYS-1 - Matematikani demasa, Rasul boshqa fanlardan xiyla nochor o‘qirdi. Ayniqsa, rasm darsini jini suymasdi.

Keys-1 bo‘yicha ―aqliy hujum metodidan foydalanamiz. Keys ommaviy tarzda yechiladi.

Topshiriqlar:

1. O’qituvchisi nima uchun Rasulni eng a’lochi o‘quvchilardan Samadga biriktirib qo‘ygandi ? 2.Samadning qishlog‘i xaritasini chizishining sababi nimada deb o‘ylaysiz? 3.Bolalarning tortishib qolishi sababini izohlang?

Keys yechimi:

1) Ayniqsa, rasm darsini jini suymasdi. Qizlar kashta tikkanday, allaqanday gullar-u jismlarning shaklini erinmay chizib o‘tirishga sira toqati yo‘q edi. Shuning uchun ham sinf rahbari uni eng a’lochi o‘quvchilardan Samadga biriktirib qo‘ygandi.

2) Hali bizda hech kim qishlog‘imiz xaritasini chizmagan, – dedi Samad qizishib. – Buni birinchi bo‘lib men chizdim. Sen yaxshilab qaragin, juda qiziq bu. Manavinisi o‘zimiz yozda cho‘miladigan ko‘l, bunisi podayotoq... Katta ko‘cha sal qiyshiq chiqibdi. Bunisi maktab, shifoxona... Lekin o‘zimizning hovlini juda o‘xshatib chizdim.

2) Meni bukriga o‘xshatib qo‘yibsan-ku! – Hecham-da, – Samad qog‘ozni buklab qo‘yniga soldi. – O‘zing chizolmaysan, chizganni ko‘rolmaysan. Bu gap Rasulga ayilday botdi. – Chizolmaymanmi? – Chizolmaysan! – dedi Samad tap tortmay. – Bu senga shunchaki rasm emas, xarita. Xarita chizish uchun kalla kerak. Hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi bu. – Chizolmaymanmi? – Yo‘q chizolmaysan! Ularning tortishuvi Samadning arazlab ketishi bilan yakunlandi.

Bularning hammasi o`qituvchi va talaba (yoki o`quvchi)larga bog`liq.Shu bilan birga o`quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, talaba (yoki o`quvchi)larning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi ksrak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o’qitishning pedagogik texnologiyalari to’plami / Met.qo’ll. - O’rtamaxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimida innovatsion texnologiyalar seriyasidan.– T.:TDIU, 2013

# BAYON – BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH OMILI

**Parpiyeva Dilorom Axmadjonovna**
Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani
53-sonli maktabning boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilariga bayon yozdirish qonun qoidalari haqida malumot berilgan. Shuningdek bayonning bolalar nutqini o’stirishdagi, o’z fikrini ayta olishdagi roli haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** bayon, matn, hikoya, nutq, fikr, reja, yozish, mashq, o’qish, dars.

O‘quvchilarni o‘z fikrini mustaqil yozishga o‘qilgan matnni hikoya qilishga o‘rgatishni iloji boricha ertaroq boshlagan ma’qul. Buning uchun o‘quvchilar matnni og‘zaki hikoya qilayotganda qo‘llangan alohida so‘zlarni yozishdan gapni yozishga, so‘ng matnning qismlarini yozishga va ikkinchi sinfdan boshlab maxsus tanlangan kichik matn asosida bayon yozishga o‘rgatiladi.

Bayon o‘qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma’lum tayyorgarlikdan so‘ng yozma qayta hikoyalashdir. O‘qish darslarida matn ustida ishlash, o‘qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va reja asosida og‘zaki qayta hikoyalash bolalarni bayon yozishga tayyorlaydi.

Bayon yozishning turlari hilma-hildir. Har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan bayon yozish mumkin, ammo bayon yozish qayta hikoyalashga nisbatan qiyin va murakkab faoliyatdir. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozish sur’ati sekin, shunga ko‘ra bayon uchun kichik hajmdagi kompozitsiyasi sodda, til tomondan ham mos matn tanlanadi.

Bayon matni asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Avval hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi bir matn tanlansa unga yana bir qancha lavhalarning tasvir elementlari kiritila boriladi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, muhokama elementlari qo‘shiladi; keyinroq shaxsini o‘zgartirib bayon yozishga o‘tiladi. Shunday qilib, bayon asta-sekin ijodiy tus oladi.

Mashq sifatida bayonning ahamiyati katta: bayon o‘quvchilarda adabiy nutqni to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi, nutq madaniyatini yaxshilaydi, badiiy uslubni singdiradi, tilga sezgirlikni oshiradi. Bayon uchun kishilarning fidokorona mehnati, hayoti, ona tabiat tasviri, fan, texnika, madaniyat borasidagi yutuqlari aks ettirilgan yuksak g‘oyali matn tanlanishi, bayon mavzusi o‘quvchilarning bilish tajribasini kengaytirishi, ularning dunyoqarashini shakllantirishi zarur. Qayta hikoyalash va bayonda o‘quvchilarning tabiiy nutqi eshitilishi, ya’ni berilgan matnni tushunmasdan yodlamasligi, nutq birliklaridan, sintaktik birlikdan foydalana olishi zarur. Til vositalari matnni o‘qish, suhbat, matn tahlili davomida o‘zlashtiriladi; matndagi so‘zlar va nutq birliklari “o‘ziniki” bo‘lib qoladi. Qayta hikoyalashda namunadagi u yoki bu gapni bola esga tushurishga harakat qiladi. O‘zlashtirgan mazmunni to‘liqroq va aniqroq berish uchun gaplar tuzadi. Bu bilan o‘quvchining mustaqil fikrlash darajasi va bilish faolligi o‘sadi. Ijodiy elementlar qo‘shila boradi. Qayta hikoyalashda namunadagi izchillik, bog‘liqlik saqlanishi asosiy faktlar berilishi ayniqsa, ilmiy matnni qayta hikoyalashda barcha muhim o‘rinlar to‘liq bayon qilinishi zarur. Vaqt-vaqti bilan ilgari eshitilgan, o‘qituvchi o‘qib bergan yoki radio televizordan yozib olingan matnni qayta hikoyalatish, o‘quvchi bir marta ovoz bilan yoki ichida o‘qigandan so‘ng qayta hikoyalashdan foydalanishni tajribada qo‘llab turish ham mumkin. Bu ishni turli xil uslublarda olib borish imkoniyatini yaratadi va uni jonlantiradi.

Bayon yozdirishda o‘quvchilar matn mazmunini qanchalik tushunganliklari, o‘z fikr va tushunchalarini ijodiy va mustaqil ifodalaganlari, yozma nutq malakasi va savodxonligi sinab ko‘riladi. Boshlang‘ich sinfda bog‘lanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) berilgan savolga to‘liq, mukammal javob;

2) o‘qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o‘rganish; o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish bilan bo‘gliq holda har xil matnli mashqlar;

3) muntazam o‘tkazilgan kuzatishlarni yozib borish va ob-havo kundaligini yuritish;

4) o‘qilgan matnni turli variatda og‘zaki qayta hikoyalash;

5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshi yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki sujet asosida o‘quvchilarning og‘zaki hikoyasi;

6) badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o‘quvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish;

7) ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik she’r, hikoya tuzish;

8) namunasi berilgan badiiy, ilmiy-ommabop matn asosida bayon yozish;
9) o‘qituvchi bergan matnni o‘gzaki va yozma qayta tuzish;
10) har xil turdagi yozma insho.

Ushbu turdagi mashqlar ham o‘quvchilarni bayon yozishga tayyorlaydi.

Bayon o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalarni oshiradi u asosan dasturda bog‘lanishli nutq yoki nutq o‘stirish bo‘limida kiritiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bayon yozdirishdan oldin ishning maqsadi va vazifasi belgilab olinadi. Shu bilan birga o‘quvchilarning bilimi yosh xususiyatiga moslab matn tanlanadi. O‘quvchilarga bayon yozdirish ikki xil: o‘qituvchi tuzgan reja asosida va o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarning o‘zlari tuzgan reja asosida olib boriladi.

O‘quv yilining 1-yarmida bayon rejasini o‘qituvchi tuzadi. Keyinchalik o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil tuzadilar. O‘quvchilariga bayon yozdirishda quyidagi maqsadlarga erishish ko‘zda tutiladi. Asosiy fikr kim yoki nima haqida borayotganligini bilish; Bayondan bir so‘zni takror ishlatavermay uning sinonimlaridan foydalanishni o‘rgatish; Yozma nutqni o‘stirish; Imlo xatolarni tuzatish.

Boshlang’ich sinfda o‘quvchilarni matn bilan tanishtirishda ishni tayyorgarlik mashqlaridan boshlash maqsadga muvofiq. Bu davrda gap ustida ishlashga katta ahamiyat berish talab qilinadi. Matnni tahlil qilish yo‘li bilan sodda gaplarni tuzish ko‘nikmasi mustahkamlanadi.

Bayon tahliliga quyidagicha e’tibor beriladi:
- O‘quvchilar ishi haqida umumiy suhbat.
- Eng yaxshi bayon namunasini ko‘rsatish.
- Matnga mos bo‘lmagan ortiqcha so‘zlarni o‘qib eshittirish.
- Qaysi asosiy fikr tushub qolganligini aytish.
- Xatolar ustida ishlash.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boshlang’ich sinflarning ona tili va o’qish savodxonligi darsliklari.
2. K.Qosimova. Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi. Toshkent: O’qituvchi. – 1985.
3. Internet materiallari.

# MAKTABDA MATEMATIKA FANIDAN O’QUVCHILARNI O’QITISHDA “ZIG-ZAG” STRATEGIYASI INTERFAOL O’QITISH METODIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Qodirova Muqaddam Quvondiq qizi**
**Kazakova Matluba G’ulamboy qizi**
Xonqa tuman 24-son maktabning
Matematika fani o’qituvchilari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabda matematika fani dars jarayonida o`quvchilarning bilimini shakllantirishda innovasion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan. Didaktik vositalardan foydalanishda o’quvchilarning psixologik, yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi misollar asosida isbotlangan.
**Kalit so’z:** matematika, ta’lim, metod, yosh, guruh, didaktik, o`quvchi, fan.

Ta’lim jarayoni o‘quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta’lim mazmunida, shuningdek, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan tushuncha, ko‘nikma hamda malakalarning hajmi ham o‘z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta’lim mazmunining g‘oyaviy jihatdan mukammalligi o‘quvchilar tomonidan muayan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Buning samarasi o‘quvchilar tomonidan ma’lum tushunchalarning o‘zlashtirilishi, ko‘nikma va malakalarning shakllanishini ta’minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo‘ladi. Aynan darsning shakli, metod va vositalari ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli ta’minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o‘quv predmetining mavzusi borasidagi nazariy bilimlar o‘quvchilarga uzatiladi, o‘quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilinadi. Dars mashg‘uloti uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta’lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi.

Maktabda o‘qitiladigan har qanday fandan beriladigan bilim, tarkib toptiriladigan ko‘nikma va malakalarning shakllantirilishida turdosh o‘quv fanlarning o‘zaro uyg‘unlikdagi imkoniyatlaridan yetarlicha fodalanishning ahamiyatini chuqur anglab yetmog‘imiz har bir pedagog va tarbiyachi o‘zining kundalik pedagogik faoliyatini o‘z fani doirasida fanlararo aloqani amalga oshirishga yo‘naltirish zarur va muhim masalalar tarkibiga kiradi.

“ZIG-ZAG” STRATEGIYASI - bu metodi o‘quvchilar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1.O‘quvchilarda jamoa (yoki guruh) bo‘lib ishlash ko‘nikmasi shakllanadi;

2.Mavzuni o‘zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejaladi.

“Zig-zag” strategiyasini qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

-sinf o‘quvchilari bir necha (5-7 ta) guruhga bo‘linadi;

-yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5-7 ta qismga ajratiladi;

-har bir guruhga mavzuning muayyan qismi (1-matni, 2-matni, … ) beriladi va uni o‘rganish vazifasi topshiriladi;

-belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar;

-vaqtni tejash maqsadida guruh a’zolari orasidan liderlar tanlanadi va ular o‘rganilgan matnga oid asosiy ma’lumotlarni guruhdoshlariga so‘zlab beradilar;

-liderlarning fikri guruh a’zolari tomonidan to‘ldirilishi mumkin;

-barcha guruhlar o‘zlariga berilgan matnni puxta o‘zlashtirganlaridan so‘ng matnlar guruhlararo almashtiriladi;

-bu bosqichda ham yuqoridagi faoliyat takrorlanadi;

-shu taxlitda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o’qitish texnologiyalari. – T.: ―Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2007.

2.Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o’qitishning pedagogik texnologiyalari to’plami / Met.qo’ll. - O’rtamaxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimida innovatsion texnologiyalar seriyasidan.– T.:TDIU, 2013

# YOSHLAR O’RTASIDA KITOBXONLIK VA MUTOLAA MADANIYATINI YUKSALTIRISH

**Qosimbetova Biybisanem**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Qorauzak tumani axborot-kutubxona markazi,
axborot- bibliografiya xizmati rahbari

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yoshlar o’rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolaasi insonni ma’naviy kamolot sari yetaklashini, insonni har tomonlama yetuk, komil shaxs sifatida kamol topishidagi o’rni nihoyatda beqiyosligi haqida ma’lumotlar berib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy, yoshlar, madaniyat, kitob mutolaasi, komil shaxs, g’oyalar, ma’rifat peshvolari, ahli donishlar, kitob, ma’naviy quvvat, PQ-3271 sonli qaror.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”.

Necha ming yillardan buyon insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘st bo‘lish, va kitob o‘qishni kanda qilmaslik hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida bir o‘rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undab boradi.

Kitob – umr yo’llarini yorituvchi so’nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo’luvchi sodiq do’st hisoblanadi. Insonning ma’naviy kamolotini ta’minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo’q. Shu bois azal-azaldan ma’rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o’qishga, undan ilmu odob sirlarini o’rganishga chorlab kelishgan.

Darhaqiqat, kitob insonni yerdan ko’kka ko’taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuchdir. U insoniyatning tarixiy xotirasi, ma’naviy-ma’rifiy olami, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko’rsatib borishga qodir mash’ala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori ijrosi yuzasidan joylarda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlar davom etmoqda.

Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish, «Eng yaxshi kitobxon hudud», «Eng yaxshi kitobxon mahalla», «Eng yaxshi kitobxon ta’lim muassasasi» kabi reytinglarni joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilangan.

Mamlakatimizda keyingi yillarda yoshlar o’rtasida kitobxonlik madaniyatini targ’ib qilish borasidagi ishlar ko’lami sifat darajaga ko’tarildi desak, mubolag’a bo’lmaydi.

O’quvchilar orasida kitobxonlikni targ’ib qilish maqsadida turli madaniy- ma’rifiy, intellektual tadbirlar o’tkazib kelinmoqda. O’quvchilar va ularning ota- onalari o’rtasida kitobxonlikni targ’ib qilish va rag’batlantirish maqsadida ta’lim muassasalarida “Kitob taqdimoti”, “Adabiyot kunlari”, “Kitobim-oftobim” nomli ma’rifiy tadbirlar, “Maktab-kutubxona-oila-jamoat tashkilotlari” xayriya tadbiri va ota-onalar ishtirokida “Bir farzandga - uch kitob” aksiyalarini hamda “Eng yaxshi kitobxon o’quvchi” va “Kitobxon maktab” tanlovlarini o’tkazish yo’lga qo’yilgan.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Binobarin, aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma’naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishga ko’maklashadi.

“NOP World” xalqaro reyting agentligi ma’lumotlariga ko’ra, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko’rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o’tkazadi, 6,5 soatni esa mutolaaga ajratadi. 2016 yilda haftasiga eng ko’p kitob o’qiydigan mamlakatlar ro’yxatida Hindiston — 10,7, Tailand — 9,4, Xitoy — 8, Filippin — 7,6, Chexiya — 7,4, Rossiya — 7,1, Shvesiya — 6,9, Fransiya — 6,9 va Vengriya — 6,8 soat bilan yuqori o’rinlarni egalladi.

Noshirlik faoliyati rivojlanib, kitob mutolaasi yanada ommalashib borayotgani muloqotning

audio, video vositalari, radio, televidenie, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari hayotimizdan chuqur o’rin egallashi bilan odamlarda kitob o’qishga qiziqish yo’qoladi, degan fikr xato ekanligini ko’rsatmoqda. Shubhasiz, ommaviy axborot vositalarining yangi turlari paydo bo’lishi natijasida kitobxonlik birmuncha pasaygan bo’lsa-da, matbuot odamlarda kitob mutolaasiga qiziqishni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Qator agentliklarning jahonda kitobga bo’lgan talabni o’rganishi shuni ko’rsatdiki, so’nggi 30 yilda bir nomdagi kitob mahsulotlarini chiqarish uch baravar, adadi bo’yicha 4 baravar ko’paydi. Bugungi kunda dunyoda har yili qariyb bir million nomda kitoblar chop etiladi. Masalan, AQShda kishi boshiga 10 ta, Rossiyada 9,5 ta, Fransiyada 5 ta, Xitoyda 3,5 ta kitob bosilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kitobga oshno, yuksak intellektual salohiyatga va o’z mustaqil dunyoqarashiga ega, tashabbuskor, jismonan sog’lom va ma’nan yetuk bo’lgan haqiqiy vatanparvar yoshlargina bugun tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarning hal qiluvchi kuchi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli qarori
2. https://lex.uz/ru/docs/-5160827
3.https://www.norma.uz
4. https://kompy.info/kitobxonlarda-oqish-madaniyatini-tarbiyalashning-maqsad-va-vaz.html

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNI MATNNI REJA ASOSIDA QAYTA BAYON QILISHGA O‘RGATISH

**Qosimova Ra‘noxon Keldiboyevna**
Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani
33-sonli maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilariga matnni reja asosida qayta bayon qilishga o`rgatish usullari, matn bilan ishlash, uni qayta hikoyalash va bunda reja tuzishning ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** ta’lim, matn, qayta hikoya qilish, reja, bayon qilish, ona tili, dars, hikoya, qism, bayon, savol, usul.

Hozirgi kunda ona tili darslari maqsadini belgilar ekanmiz, darslarda asosan o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va o‘z fikrini savodli qilib, chiroyli ifodalashga o‘rgatishimiz zarur. Bu boradagi usullardan biri ijodiy matn yaratish va matnni qayta hikoyalashga o‘rgatishdir.

Matnni reja asosida qayta bayon qilishga o’rgatish ona tili darslariga qo‘yilgan talablarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan eng samaradorli usul bo‘lib, unda o‘quvchning tafakkuri rivojlanadi, so‘z boyligi ortadi va so‘zdan o‘rinli foydalanish jihatidan bir- biridan farq qiladi.

Matn avval o’qilgach yoki eshitilgach, so’ngra og’zaki qayta hikoya qilinadi. Matnni qayta hikoya qilishdan avval o’quvchilar matnni o’qiydilar, uning mazmunini bilib oladilar, ayrim hollarda esa matnning rejasini ham tuzadilar. O’quvchilar shunday tayyorgarlikdan keyin matnni ikkinchi marta o’qiydilar va dastlab uning ayrim qismlarini, so’ngra hammasini hikoya qiladilar. O’quvchilarning badiiy asarlardan ma‘lum parchani o’qib berishda o’zini tuta bilishi, matnni og’zaki qayta hikoya qilishni muvaffaqiyatli o’tkazish uchun alohida ahamiyatga egadir. O’quvchi matnni qayta hikoya qilib berayotganida o’qituvchi uni o’rinsiz savol va tanbehlar bilan shoshiltirib qo’ymasligi kerak. Aks holda, o’quvchi o’zining gapidan adashib qolishi mumkin. Matnni og’zaki qayta hikoya qilishga sinfdagi hamma o’quvchilarni tortish lozim, chunki bu vaqtda bir o’quvchi hikoya qilsa, boshqalari tinglaydi va ko’pchilik bo’lib hikoyani to’ldiradi. O’quvchi hikoya qilayotganda so’zlarni noto’g’ri talaffuz etsa yoki o’zbek tili grammatikasining qoidalarini buzsa, o’qituvchi uning bu xatolarini darhol tuzatishi kerak.

O’qilgan matnni og’zaki qayta hikoya qilish bilan birga, tinglangan matnni ham qayta hikoya qilish kerak. Ishning bu turi o’quvchilarni bayon yozishga tayyorlash uchun muhimdir, chunki o’quvchi matnni tushungandan so’nggina bayon yozadi.

O’quvchilardagi eshitish, tinglash qobiliyatini tarbiyalash eng asosiy vazifalardan biridir. Shuning uchun o’quvchilarga tinglagan matnlarini tez-tez qayta hikoya qildirib turish lozim. Tinglangan matnni og’zaki hikoya qilishda o’qituvchining o’qib yoki so’zlab berishi katta ahamiyatga egadir.

O’qituvchi matnni baland ovoz bilan sekin va ifodali qilib o’qib berishi yoki so’zlab berishi kerak. O’qituvchi matnni o’qib yoki so’zlab berishdan oldin o’quvchilarni faollashtirish maqsadida ularning ham matn mazmunini qayta hikoya qilishlari kerakligini uqtirishi lozim.

Og’zaki qayta hikoya qilishni o’tkazishda o’quvchining ishi asta-sekin murakkablashib boradi. O’quvchilar matnni qanday o’zlashtirgan bo’lsalar, dastlab ana shunday so’zlab beradilar, keyin bu matnni ma‘lum darajada kengaytirib, mustaqil ravishda hikoya qilishga o’rganadilar.

O’qituvchi o’quvchilarning so’zlash ko’nikmasini rivojlantirish maqsadida, matnni hikoya qildirish, shaklini o’zgartirgan holda qayta hikoya qildirish, chunonchi, o’tgan zamon fe‘lini hozirgi zamonga almashtirgan holda matnni qayta hikoya qildirish usullaridan foydalanishi mumkin. Shunday qilib, matnni to’la holda qayta hikoya qilishdan qisqa qilib hikoya qilishga o’tiladi. Sinfda tinglangan matnni qayta hikoya qilishdan tashqari, vaqt-vaqti bilan sinfdan tashqarida ko’rilgan va tinglangan narsalarni (radio orqali eshitgan narsalari, ko’rgan kinofilmi va boshqalarni) hikoya qilib berishni ham uyushtirish lozim.

Qayta hikoyalashga kirishishdan oldin uning rejasi tuziladi. Reja bayon matnining asosiy mazmunini aks ettirishi va voqea-hodisalarni izchil bayon etishga yordam berishi kerak. Reja eng muhim va ikkinchi darajali fikr ham hodisalarni, ular o’rtasidagi munosabatlarni aniqlashda o’quvchilarga katta yordam beradi.

O’quvchilar reja tuzishga kirishishdan oldin matnning umumiy mazmuni bilan tanishish

uchun uni to’la-to’kis o’qib chiqadilar; so’ngra matn qismlarga yoki boblarga bo’lib o’qiladi. O’quvchilar har qaysi qismga sarlavha qo’yadilar. Qismlarning sarlavhasi savol yoki atov gap xarakteridagi qisqa jumlalardan iborat bo’lishi lozim. Reja tuzishdagi ishning bunday dastlabki usullari ko’pincha I va IV sinflarda qo’llaniladi.

Reja tuzishda o’quvchilar matnning har bir qismi nima bilan tugashini aniqlashlari qiyin. Buning uchun o’qituvchi matnning qismlarini avval o’zi aniqlaydi va matnga sarlavha qo’yishni, keyinroq esa matndagi har qaysi qismning tugagan joyini aniqlashni o’quvchilarga topshiradi. Bunda “Qism qayerda tugaydi”, “Bu qismda nima haqida gapiriladi?”, “Nima uchun bu qism shu yerda tugaydi?” degan savollar beriladi. Reja tuzish uchun tanlangan matn tugallangan, qismlarga oson bo’linadigan, bu qismlar hajm jihatidan mumkin qadar baravar bo’lishi kerak. Demak, bayon matnining rejasini tuzishdan asosiy maqsad o’quvchilarni materialni reja asosida mantiqiy izchillik bilan bayon qilishga, ularni bayon matnining rejasini mustaqil suratda tuzishga va tasvirlangan hikoya yoki maqolaning mazmunini yaxshi tushunishga o’rgatishdir.

Matn rejasini tuzishda turli usullardan foydalanish mumkin. O’quvchilar matnga reja tuzishni asosan ona tili va o’qish darslarida o’rganadi. O’quvchilar mana shunday atroflicha tayyorgarlik ishlaridan so’ng hech bir qiyinchiliksiz matnni qayta hikoya qilishga kirisha oladilar. Tajribalardan ma‘lum bo’lishicha, hatto yaxshi o’zlashtirmaydigan o’quvchilar ham bu vazifani qiynalmasdan bajara oladilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. K.Qosimova. Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi. Toshkent: O’qituvchi. – 1985.
2. A.Zunnunov va boshqalar Adabiyot o’qitish metodikasi. Toshkent: O’qituvchi. – 1992.
2. A.Zunnunov, J.Esonov. Maktabda adabiyot o’qitish metodikasi. Toshkent: O’qituvchi. – 1985.
4. Internet materiallari.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI IJTIMOIYLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Quryozova Sayyora Hasanovna**
Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumani
1-son IDUM boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirish jarayonining pedagogik asoslari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiylashtirish, boshlang‘ich sinf, talim, hujjat, o‘quvchi, bilim, o‘qituvchi, dars, ko’nikma, malaka, savodxonlik, to’garak, shaxs.

Bugungi kunda boshlang`ich ta`limning sifat va samaradorligini yanada takomillashtirish talab qilinmoqda. Boshlang`ich ta`limning asosiy maqsadlaridan biri shundaki, kichik maktab yoshidagi o`quvchilarga o`qish, yozish va hisoblashga o`rgatish, tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash xislatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiyena va sog`lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish va o’quvchilarni ijtimoiylashtirishdan iborat.

Ijtimoiylashtirish-bu shaxsni ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, ongini ilmiy asoslar vositasida korreksiyalash va uni ijtimoiy faoliyatga tayyorlashdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirish esa bu 6-11 yoshli o‘quvchilar ongini dastlabki bosqichda shakllantirish va ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi. Agar mazkur masala ilmiy asosda hal qilinsa, o‘quvchilarning ta’lim va tarbiya olishi yanada kuchayadi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning asoslari kutilgan darajada mavjud. Bu asoslarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

1) ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar;
2) ilmiy g‘oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari;
3) ilmiy va mumtoz pedagogik meros;
4) ilg‘or pedagogik tajribalar;
5) zamonaviy pedagogik texnologiyalar va h.k.

Bu asoslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kutilgan darajada ijtimoiylashtirish imkonini beradi. Misol uchun, O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga ko‘ra, Respublika boshlang‘ich o‘quvchilarning ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim olish va ko‘nikma asoslarini shakllantirish vazifasini bajaradi. Bizning fikrimizcha, bu o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning muhim me’yoriy asoslari o‘z ifodasini topgan. Negaki savodxonlik- bu o‘quvchilarni jamiyat madaniy muhitiga olib kirishdir va bu ularni o‘qish, yozish hamda hisobga o‘rgatish bilan amalga oshiriladi.

Bilim olish- o‘quvchilarni ijtimoiy ongini shakllantirishdir, bu bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijtimoiy faoliyatga tayyorlanadi.

Ko‘nikma - bu o‘quvchilarning ijtimoiy munosabatini shakllantirish vositasida ularni jamiyat muhitiga olib kirishdir. E’tibor berilsa, aynan bilim, savodxonlik va ko‘nikma boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning muhim asosi ekanligi ma’lum bo‘ladi. Yoki, milliy g‘oyamizning asosiy tushuncha tamoyillarini olaylik. Unga ko‘ra, milliy g‘oya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning g‘oyaviy asosidir. Ular:

1) Yurt tinchligi- yurtparvarlik va tinchlikparvarlik;
2) Vatan ravnaqi- vatanparvarlik va taraqqiyparvarlik;
3) Xalq farovonligi- xalqparvarlik va farovonlik;
4) Millatlararo totuvlik- millatparvarlik va totuvlik;
5) Dinlararo bag‘rikenglik- sog‘lom e’tiqodlilik va bag‘rikenlik;
6) Ijtimoiy hamkorlik- ijtimoiy faollik va hamkorlik;
7) Komil inson- yetuk shaxs bo‘lish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongi, axloqi va faoliyat ko‘nikmasida ana shu g‘oyalar, sifatlar va xususiyatlar shakllantirilishi kerak. Bu bilan ularni ijtimoiylashtirish kutilgan darajada amalga oshadi. Buning uchun maqsadni va tizimli yondashuvni shakllantirib olish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirish vositalari keng ko‘lamliligi bilan e’tiborni tortadi. Bunday vositalarning eng asosiylari quyidagilardir:

1) dars jarayoni;
2) ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar;
3) to‘garaklar mashg‘ulotlari.

Dars jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiylashtirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Buning uchun o’qish, ona tili, tabiiy fan kabi fanlarni o‘qitish jarayonida quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) voqelik va hodisalarni o‘quvchilarga tushuntirish;
b) inson, jamiyat va tabiatga nisbatan o‘quvchilarning munosabatini shakllantirish;
v) o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Bularga erishilsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy ongi shakllanadi va ularda mustaqil ijtimoiy munosabat tarkib topadi.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Bunday tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilarga diqqat qilish kutilgan samarani beradi:

a) tadbirlarning qiziqarli va milliy g‘oyaga asosan o‘tkazilishi;
b) tadbirlarni tayyorlashda o‘quvchilarni keng jalb qilish va hayotiy voqelikka asoslanish;
d) tadbirlarning samaradorligini kuzatib borish va yangi mavzularga asosiy e’tiborni qaratish.

To‘garak mashg‘ulotlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning muhim vositalaridan biridir. Ayni paytda, boshlang‘ich sinflarda to‘garaklarni tashkil qilishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

a) to‘garaklarning maqsadli va ijodiy xususiyatga ega bo‘lishi;
b) to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning layoqatini o‘stirishga e’tibor berish;
d) to‘garak mashg‘ulotlarini taniqli shaxslar va pedagoglar ishtirokida o‘tkazish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy faollashtirish muhim omillaridan ekanligini unutib bo‘lmaydi. Shunday qilib, mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kutilgan darajada ijtimoiylashtirishning real asoslari mavjud va bulardan oqilona foydalanishimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O’zbekiston Respublikasining “Talim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. J.Xasanboyev va boshqalar. Pedagogika.– T.: Noshir, 2011.

# TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA A.K.T. NING AHAMIYATI

**Radjapova Sevara Vladimirovna**
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktabning boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi
radjapovasevara@gmail.com//91-997-88-99
**Yusupova Zulfiya Samandarovna**
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktab ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
yusupovazulfiya@gmail.com//91-991-82-92

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o’quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish haqida so’z boradi.
**Kalit so’zlar:** ”Chaqqon qo’llar”,”Imloviy daqiqa”metodlari,karaoke dasturi.

Ta’lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT) dan o’quv jarayonining barcha sohalarida foydalanish, jarayonni axborot muhitiga singdirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biriga aylandi.AKTdan foydalanib dars o’tish o’quv samaradorligining keskin oshishiga ko’maklashadi. Bugungi kunda dars o’tishning turli xil yo’l-yo’riq va vositalari ishlab chiqilmoqda. Masalan, mashg’ulot darsi, kinoli dars, teatrli dars, chizma darsi, BBB usuli (Bilaman, bilishni xohlayman, bildim) o’zlashtirilgan ma’ruza va hokazo.Bu usullar ta’lim samaradorligini o’quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda muhim o’rin egallaydi. Internet resurslarini darsda ishlatish o’quvchini mustaqil ishlashga undaydi. Chunki har xil ma’lumot bilan ishlash, uni tahlil qilish, baholash juda dolzarb muammolardan biri bo’lib, oquvchilar mavzularini anglab va tushunib yetishi uchun barcha imkoniyatlar yaratish katta samara beradi. O’quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, bugungi kun talabini his qiladigan, mantiqiy tafakkurga ega insonlar qilib tarbiyalashimiz uchun ularning dunyoqarishini shakllantirishimiz lozimdir. Bunday natijalarga erishishda esa fanlarni o’qitishda AKTdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qish savodxonligi darslarini o’qitishda ham AKTdan foydalanish ijobiy natija beradi.Tajribalardan ma’lumki,inson eshitish orqali-15 %, ko’rish orqali- 25 %, eshitish bilan bir vaqtda ko’rganida esa-65 % axborotni qabul qiladi. Bugungi ta’lim samaradorligini oshirishda esa AKTdan foydalanish maqsadga muvofiq.AKT vositalaridan biri bo’lgan kompyuterdan foydalanishni pedagogik jarayonlarga tadbiq etilsa, shubhasiz, o’quvchining darsga bo’lgan qiziqishi ortadi va shu bilan ta’lim samaradorligi ham o’sadi. Bunday vaziyatda o’quvchi ham ko’radi, ham eshitadi, ham kompyuter bilan muloqotda bo’ladi. Hozirgi kunda o’quvchilarning yozma savodxonligini oshirish dolzarb muammolardan biridir. O’quvchilarning imlo me’yorlari asosida to’g’ri va tez yozish malakalarini shakllantirish maqsadida diktantlarni kompyuterda rejalashtirsa ham bo’ladi. Bunda “Chaqqon qo’llar” interfaol metodi bizga juda qo’l keladi,ya’ni oldindan kompyuterga kiritilgan diktant matnidan foydalangan holda o’qituvchi tomonidan aytib yozdirishda o’quvchining yozdirilayotgan matnni to’g’ri yoza olishi va belgilangan muddatda tugata olishi nazarda tutiladi. Shunga qarab o’quvchi ishi tekshiriladi va xatolari aniqlanib baholanadi. Demak, bu jarayonda o’quvchining topshiriqlar asosida bergan javoblari natijasi shu onda ma’lum qilinadi. Zora, ko’cha-ko’yda imlo me’yorlari buzib ko’rsatilgan e’lon va ko’rgazmalardagi xatoliklarga chek qo’yilsa.Biz har bir ona tili darsimizni “Imloviy daqiqa” metodidan samarali foydalangan holda to’g’ri tashkil qila bilishimiz lozim. Xo’sh, “Imloviy daqiqa” – bu qanday metod? Undan qay tarzda foydalanish mumkin? “Imloviy daqiqa” metodida lug’at va yod diktant matnlaridan foydalanib slaydlar yaratish va har dars avvalida o’quvchilarning yozma savodxonligini oshirib borish yuqori natijalar beradi.AKT bilan ishlash jarayonida ma’naviyatimizga yot, “ommaviy madaniyat” ga xos bo’lgan axborotlarga qarshi kurashish uchun o’quvchilarda ma’naviy immunitetni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bugunga kunga kelib, rasmlar yoki qog’oz plakatlardan ko’rgazmali qurol sifatida foydalanish usuli eskirdi. Shu bois adabiyot darslarida mavzuni jonli,qiziqarli va zamonaviy o’tish uchun respublikadagi tajribali ijodkor o’qituvchilar tomonidan o’tilgan darslarning video shaklini yaratish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishimizda mtrk.uz sayti bizga yordamga keladi. Mazkur dasturlar tajriba orttirmoqchi bo’lgan o’qituvchi uchun ham ahamiyatlidir. Internetda video tasvirlarni va elektron dasrliklarni “O’rgan-o’rgat” o’qitish metodikalariga bag’ishlangan

maxsus sayt yaratib, online kutubxonasiga joylash lozim. O’zi uchun murakkab yoki qiziqarli bo’lgan darslarni yozib olishni xohlamaydigan o’quvchi bo’lmasa kerak. Agar u mavzu bilan video tasvir orqali oldindan tanishgan bo’lsa, dars davomida konspektlashtirishga ketgan vaqti tejaladi, mavzuni tushunib olishga emas, o’z tushunchalarining nechog’lik to’g’ri-noto’g’riligini tekshirishga harakat qiladi, mavzuga oid savollarni oldindan tayyorlab qo’ya oladi va mavzu yuzasidan bahs-munozaraga qatnasha oladi. O’quvchida bir mavzuda o’tgan darsning bir nechta varianti bo’lsa, u oqiyoslash, tahlil qilish,xulosalar chiqarish imkoniyati bo’ladi.

Sifatli elektron darslik – davr talabi. O’quv qo’llanmalardagi dasturlar an’anaviy dars tizimiga moslashtirilgan, shu sababli elektron darslik tuzishda noan’anaviy dars usuliga moslab animasiyali dasturlar, test va krossvordlar va “Ortiqchasini top”, “Men kimman?” singari o’yin uslublaridan foydalanishga katta ahamiyat berishimiz darkor. Elektron darsliklar talab darajasida yaratilishini har bir fan o’qituvchilari o’z zimmasiga olishi shart, deb o’ylayman. O’qish darslarida karaoke dasturidan foydalanishni yo’lga qo’yish. Bu usulni interaktiv doska yordamida amalga oshirish samarali natijaga erishish imkonini beradi. Masalan, o’quvchi oldin ifodali o’qilgan she’r,masallarni eshitib ko’radi, so’ng o’zi o’qiydi va kompyuter tomonidan baholanadi. Natijada o’quvchining ifodali o’qish malakasi shakllanib boradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars o’tish ham yangilik,ham yengillik yaratadi: zarur ko’rgazmali qurollar,tarqatmalrning hammasi kompyuter orqali tayyorlanadi. Bu o’qituvchining darsga tayyorgarlik vaqti va mablag’ini tejaydi.Dars jarayonida o’quvchilar bilimlarni olish uchun faol ishtirok etadilar va fanga qiziqishlari ortadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida» gi Qonuni. // Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent; «Sharq», 1997.

2.Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari // «Info. Kom Uz» jur. №3,2006.

# BOSHLANG‘ICH SINFDA UMUMLASHTIRUVCHI DARSLARNI TASHKIL QILISH

**Raximova Dilorom Burxoniddinovna**
Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani
53-sonli maktabning boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda umumlashtiruvchi darslarni tashkil qilish metodikasiga to’xtalib o’tilgan, bunda asosan o’qish darslariga ko’proq e’tibor qaratilgan, taklif va mulohazalar berilgan.

**Kalit so’zlar:** umumlashtiruvchi darslar, boshlang’ich sinf, o’quvchi, tasavvur, mavzu, dars, darslik, o’qish, ekskursiya, ertak, mashg’ulot, material, kuzatish.

Boshlang’ich sinfda o`qishdan o`tkaziladigan umumlashtiruvchi dars o`quvchilar bilimini bir tizimga solish, o`rganilganlarni takrorlab umumlashtirish uchun xizmat qiladi. Umumlashtiruvchi dars odatda o`qish dasturidagi u yoki bu muhim mavzu yuzasidan o’tkaziladi. Umumlashtiruvchi dars darslikning butun bir bo`limini yakunlashga xizmat qilishi ham mumkin.

Boshlang’ich sinfda o`tkaziladigan umumlashtiruvchi dars bolalar tasavvuri va tushunchalarni kengaytirishga yordam beradi; bunday darslarda o`quvchilar egallagan bilimlarning sinf va maktab jamoasi hayotida, har bir o`quvchi hayotida qanday ahamiyatga ega ekanini tushunadilar. Bu darsda o`qituvchi bolalar bilimini boyitadigan shu mavzu oid qo’shimcha materiallar ham berishi mumkin.

Boshlang’ich sinfda umumlashtiruvchi darsda takrorlash ilgari o’qilganlar mazmunini o`quvchilar yodida qayta tiklash emas, balki umumlashtiruvchi xarakterda bo`lishi, bolalar bilimini sistemalashtirishga, ayrim tasavvur va tushunchalarni tartibga solishga yordam berish lozim. Shunday ekan, bunday darslar uchun kitobdan o’qiganlargina emas, balki bolalarning kuzatishlari natijasida bevosita idroklangan tabiatdagi predmetlar va xodisalar, ijtimoiy hayot voqealari, shaxsiy tajribalari xam material bo’ladi. Maktab hayoti, oila mavzusi yoki tabiatshunoslikka oid mavzuga bag’ishlangan umumlashtiruvchi darsning vazifasi kitob materialini o`quvchilarning kuzatishlari, ekskursiyalar jarayonida olgan bilimlari bilan bog`liq xisoblanadi.

Umumlashtiruvchi darslarda ish turlari xilma - hil bo’lib, ko’rilgan va kechirilganlar yuzasidan, illyustrativ materiallarni (rasmlar, misollar) ko’rsatish va taxlil qilish, o`quvchilarning ayrim asarlardan parchalar o`qishi, ekskursiya va kuzatishlar haqida bolalarning og’zaki hikoyasi kabilardan foydalaniladi. Umumlashtiruvchi dars uchun ish turi darsning aniq maqsadidan kelib chikib tanlanadi. Umumlashtiruvchi darslarga asosan quyidagi pedagogik talablar qo’yiladi: o`quvchilar muayyan mavzu ustida ishlab, o`qiganlari, ko`rganlari, eshitganlari, kuzatganlari haqida o’z fikr - muloxazalarini dadil va erkin aytish imkoniyatiga ega bo’lsinlar. Masalan, ma’lum bir mavzuni yakunlab o’tkazilgan umumlashtiruvchi darsda bolalar kitobdan shu mavzuga oid o`qigan hikoya va maqollardan qaysi biri qiziqarliroq ekanini, shuningdek hikoya yoki maqolda qatnashuvchi shaxslar, ularning xulq - atvorlari haqida o’z fikrlarini aytadilar, ayrim zaruriy hollarda o`qilgan asar mazmunini qisqa bayon qiladilar. Agar mavzuni o’rganish jarayonida o`quvchilar bilan ekskursiya o`tkazilgan bo`lsa, ular ekskursiyada ko’rganlaridan nimalar qiziqarli bo’lganini, qaysilari kuchli ta’assurot qoldirganini aytib berishlariga o`qituvchi yordam beradi. Bular o`quvchilar tafakkurini faollashtiradi, ularni faol fikrlashga o’rgatadi.

Boshlang’ich sinfda umumlashtiruvchi darslar «o’qish kitobi» darsligida berilgan bo’limlar yuzasidan o’tkazilishi hamda o’quv yili oxirida barcha o’rganilganlar yuzasidan o’tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Xalq o`giti- baxt kaliti” bo`limi materiallari o`rganilgach bo`lim yuzasidan umumlashtiruvchi dars tashkil qilinadi. Bunda bo`limdagi “She’r va sichqon”, “Maymun bilan duradgor”, “Rostgo`y bola” ertaklari, maqollar va topishmoqlar, latifalar va “Laylak keldi-yoz bo`ldi” qo`shig`i o`rganilgach bu dars tashkil qilinadi. Bunda o`quvchilarning shaxsiy tajribasi, oila va maktab, shahar hayoti haqidagi bilimlari katta axamiyatga ega. Bunday darslarda umumiy xulosani o`qituvchining yordamisiz o`quvchilarning o’zlari mustaqil ravishda chiqarishlari juda muhim bo’lib, bu ularning kelajakka ishonchlarini shakllantirish uchun mustaxkam asos xisoblanadi.

O`qish kitoblarida berilgan savol va topshiriqlar bolalar qiziqishlarida berilgan savol va topshiriqlarga yaqin, ularning yosh xususiyatlariga mos bo’lishi kerak. Shunda ular yuzasidan bolalar to’g’ri yakuniy va umumiy xulosa chiqara oladilar. Bunday mustaqil xulosa chiqarish

tarbiyalovchi ta’limda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang’ich sinfda umumlashtiruvchi darsni muvaffaqiyatli o`tkazish unga o`qituvchining qanday tayyorgarlik ko’rganiga bog`liq. Bunday darsda juda ko’p material yuzasidan umumiy xulosa chiqarishni rejalashtirish mumkin emas; bu darsga ko’p material yuklash o`quvchilar diqqatini chalg’itadi, idrok etish qobiliyatlarini pasaytiradi va faol fikrlash imkonini chegaralaydi. O`qituvchi umumlashtiruvchi darsda o`quvchilardan nimalarni so’rashni, mavzu yuzasidan yana nimalarni umumlashtirishni belgilab oladi; darsning maqsadi haqida o’ylab, bolalar tafakkuri va faoliyatini faollashtirishga ta’sir etadigan ish formalaridan foydalanishni rejalashtiradi.

Umumlashtiruvchi darsni o`qish dasturidagi har bir mavzu o`rganilgandan so’ng o’tkazish shart emas. Uni faqat o`qish darsining muhim va katta bo`limi materiallari o`rganilgandan keyin o’tkazish maqsadga muvofiq. Mavzularni o’rganish davrida foydalanilgan ko`rgazma qurollardan, savol va topshiriqlardan, ekskursiya, kuzatish, uchrashuv va suxbat materiallaridan umumlashtiruvchi darslarda shundayligicha - bir xilda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Umumlashtiruvchi dars oldiga qo’yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o`qituvchi kundalik mashg’ulotlarida foydalanilgan juda ko’p materiallardan har bir mavzu uchun juda muhim va xarakterlilarini tanlashi, o`quvchilar mustaqil xulosa chiqara olishlariga va o’z fikr - muloxazalarini mustaqil ravishda bayon etishlariga imkoniyat yaratishi, ekskursiya va kuzatishda yozgan xotiralarini (agar bo`lsa) o`qib chiqishlari, ilgari tayyorlangan rasmlarini yig`ishlari, kitobdagi materiallarni ko`zdan kechirib, qiziqarli o`rinlarini belgilashlari, u yoki bu asardan ayrim parchani yodlashlari yoki matnga yaqin bayon etishga tayyorlanishlari lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. K.Qosimova va boshq. Ona tili o’qitish metodikasi. T.:  Nosir, 2009.
2. N.S.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Moliya, 2003.
3. M.Yusupov. O`qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. T.: O`qit 1990.
4. J.G.Yo’ldoshev, S.Usmonov.  Ilg’or pedagogik texnologiyalar. T.:O’qit. 2004.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING SAMARASI VA METODIK TAVSIYALAR BERISH.

**Ruzmetova Soxiba Artiqovna.**
**Kenjayeva Gulxonim Abbosovna**
Xonqa tuman 24-son maktabning
boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

**Annatotsiya:** Mazkur maqolada interaktiv vositalaridan foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual salohiyatli hamda faol shaxs qilib tarbiyalash uchun zamin yaratish, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, aqliy, axloqiy xislatlarini shakllantirishga ko'maklashishda foydalaniladigan ma'lumotlar keltirilgan va o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar berilgan.
**Kalit so'z:** Pedagogik, axborot, ta`lim, fikr, jamoa, siyosati, flomaster.

O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasi(1997-yil 29-avgust) qabul qilingan hamda bugungi kunda g`oyalari amaliyotga keng ko`lamda muvaffaqiyatli tadbiq etilayotgan O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida "o`quv-uslubiy majmualarning hamda ta`lim jarayonini didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish" "… ta`lim muassasalarining moddiy texnik bazasi axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o`quv tarbiya jarayonini yuqori sifatli o`quv adabiyotlari va ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlash " hamda "… ta`lim muassasalarining resurs kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash o`quv tarbiya jarayoni yangi o`quv uslubiy majmualar ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan to`liq ta`minlash " kabi dolzarb vazifalar ijobiy hal etish lozimligi alohida ta`kidlab ko`rsatilgan.

Darslarda yangi materialni bayon etishda o'qituvchi go'yo eshittirib fikrlaydi, bunda u o'quvchilarga bilim beribgina kolmasdan, ularga mantikan fikrlash, fan muammolarini hal qilishga ijodiy yondoshish uquvlarini singdiradi. O'qituvchi o'quvchilar uchun bilimlar manbai va o'quv jarayonini raxbarigina emas, balki taklid qilish uchun namuna xamdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Boshlang`ich sinf ona tili darslarini tashkil qilish va o`tkazish masalasi darslarda texnika vositalaridan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo`llari yaxlit holda o`z tadqiqini topmagan masalalardan hisoblanadi. Bu esa mazkur masalaga bag`ishlangan ushbi maqola mavzusining dolzarbligini ko`rsatadi.

1."Kamalak" usuli . Bu usulni biror bob yoki bo'lim yuzasidan o'tkazish mumkin. Bunda birinchi ustindagi asosiy tushunchalar har xil ranglarda beriladi. Jadvalning qolgan qismlarida so'zlar aralash yozilgan bo'ladi. O'quvchilar ushbu tushunchalarni asosiy tushuncha ranglariga mos ranglarda ifodalahslari shart.Bunda jadval bo'yatiladi yoki yopishuvchi rangdor qog'ozlar to'plamidan foydalanib to'ldiriladi. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, bir paytning o'zida 9 nafar o'quvchining bilimi sinab ko'riladi.

2."Kim ko'p biladi" o'yini. Bu o'yinni boshlang'ich sinflarning xohlagan fanlarining mavzusini o'rganishda qo'llash mumkin. Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog'ozlarni o'qituvchiga topshiradilar, sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Boshqaruvchi qo'llarni sanab, har biriga 1 balldan qo'yadi. Har bir savolga bir o'quvchidan javob so'raladi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa, o'sha guruhdan 1 ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko'p ball to'plasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Shodiyeva M., Ne'metova F. Muammoli o'qitish // Boshlang'ich ta'lim, 2009, 4-son, 6-7-betlar.
2. Xoliqova M. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // Boshlang'ich ta'lim, 2009, 5-son, 20-21-betlar.
3. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedogogik texnologiya – Zamonaviy o'zbek modeli. – Toshkent: " Lider Press", 2009.

# MAKTABDA MUSIQA VA BIOLOGIYA FANILARINI O’RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Sabirov Jamoladdin Shavkatovich**
**Karimova Maqsuda Bahodirovna**
Xonqa tuman 24-son maktabning
musiqa va biologiya fani o’qituvchilari

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada yoshlarga ta’lim–tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o’qituvchilarning kasbiy mahoratini, iste’dodi, tajribasi va madaniyati hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo’llashi, o’quvchilarni o’zaro faolikka olib kelishiga bog’liqligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so’z:** shaxs, texnologiyi ,o’quvchi, til,ta’lim, musiqa, ohang , biologiya.

Hozirda “Shaxs” tushunchasi milliy ta’limning shakl va tamoyilida muhim ahamiyatga ega bo’lib, darsga zamonaviy talablar asosida yondashishni talb etadi. Shaxsni tarbiyalash – “Ta’lim to’g’risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da Respublika ta’lim xodimlari zimmasiga o’ta ma’sulyatli vazifalar yuklaydi. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni o’quvchilarni o’qitishga yangicha yondashish, o’qituvchilarni o’z kasbiga va o’zgalarga, yani ta’lim oluvchilarga talabchanlik bilan munosabatda bo’lishni taqozo etadi. Pedagogik jarayonining eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, zamonaviy maktabga davr talablari asosida yondashish, darsga esa yangicha usullarining loyhasini tadbiq etish asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o’tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o’z isbotini topmoqda. Bu borada tajriba to’plagan tatqiqotchilar pedagogik texnologiya darsning muvaffaqiyatlarini kafolatlovchi omil ekanligini ta’kidlab, ommaning diqqat e’tiboriga havola etayotir.

Yangi pedagogik texnologiya ta’limning ma’lum maqsadga yo’naltirilgan shakl, usul va vositalar tizimidir. Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog’liq holda fanga 1872- yilda kirib keldi va yunoncha ikkita 2 so’zdan “Texnos” – san’at, hunar va “Logos” – fan so’zlaridan tashkil topib “Hunar fani” ma’nosini anglatadi. Shu ma’noda texnologiyani ma’lum ma’noda san’atga qiyos qilinadi. Chunki san’at intuitsiyaga asoslanadi, texnologiya esa fanga asoslanadi. Lekin juda ko’p faoliyat sohalari dastlab san’atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi.

SWOT-TAHLIL metodi - metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo`llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S-(strength)-kuchli tomonlari, W-(weakness)-zaif, kuchsiz tomonlari

O-(opportunity)-imkoniyatlari, T-(threat)-to‘siqlar va tahdidlar

“Topib ko’rchi” usuli. Bunda o’quvchilardan bir nafari doskaga chiqadi. Musiqa va biologiya fanga oid rasmlardan birini doskadagi o’quvchi orqasidan o’tirganlarga ko’rsatadi. O’tirgan o’quvchilar shu rasmga tegishli tushunchalarni ayta boshlaydi. Doskadagi o’quvchi rasmda nima tasvirlanganligini topadi.

“Xayoliy sayohat” o‘yini. Ta’limning bu o‘yini musiqa, biologiya, geografiya, til adabiyot va boshqa fanlarda qo‘llanilishi mumkin. Biologiya fanidan biogeografik viloyatlarga xayolan sayohat qilib, uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi o‘zi mustaqil o‘sha joyni yozma tasvirlashi kerak. Kimning yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo’lsa, u g‘olib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa, biologiya - darslarni hayotga bog‘lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni kimyo o‘yinlar egallaydi. Musiqa va biologiya o‘yinlar nihoyatda xilma-xil bo‘lib, darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni qiziqarli bo‘lishida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o’qitish texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2007

2.Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o’qitishning pedagogik

texnologiyalari to’plami / Metodik.qo’llanma. O’rtamaxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimida innovatsion texnologiyalar seriyasidan.–T.:TDIU, 2013

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARGA UNDOSH TOVUSHLARNI O'RGATISH METODIKASI VA BUNDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

**Sanakulova Dildora Usmonovna**
Samarqand viloyati Paxtachi tumani
9-son umumiy o'rta ta'lim maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchsi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilariga undosh tovushlarni o`rgatish metodikasi haqida fikr yuritilgan va bu tovushlarni o'rganish jarayonida interaktiv metodlarni qo`llab amalda ko'rsatilgan.

**Kalit so`zlar:** boshlang'ich sinf, undosh, o'qish, jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, interaktiv metod, ona tili, juft, talaffuz, tovush, o'quvchi, so'z.

Boshlang`ich sinflarda o`quvchilarga jarangli va jarangsiz undosh undoshlar ham tovushlar talaffuzini kuzatishga asoslanib tanishtiriladi. Bunda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar ajratiladi. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni o`rgatishda interfaol metodlar asosida ish olib borilsa mavzuni tushunish yanada yengillashtiriladi. "T" chizma metodi asosida jufti bor jaranli va jarangsiz undoshlarni quyidagicha tahlil qlishimiz mumkin:

| Jufti bor jarangli undoshlar | Jufti bor jarangsiz undoshlar |
|---|---|
| B | P |
| V | F |
| G | K |
| D | T |
| Z | S |
| J | Ch |
| J(sirg`aluvchi) | Sh |
| G` | X |

Bu bilan bir qatorda kuzatishda o`quvchilar faol qatnashishi va ularga jufti bor jarangli undosh bilan jarangsiz undoshlarni ajratish qanchalik muhim ekanini yaqqol ko`rsatish uchun faqat bitta undosh tovush bilan farqlanadigan baqir – paqir, gul – kul, dil – til, zina – sina, joy – choy kabi so`zlardagi tovushlarni taqqoslash maqsadga muvofiq. Bunda o`qituvchi o`quvchilar diqqatini b-p, v-f, g-k, d-t, z-s, j-ch tovushlari biri jarangli, ikkinchisi jarangsiz undoshdan iborat tovush juftlarini hosil qilishiga qaratadi, ularning talaffuzidagi farqni amaliy tushuntiradi (jarangli undosh tovushlarda shovqin va qisman ovoz qatnashadi, jarangsiz undoshlarda esa faqat shovqin eshitiladi).

Jufti yo`q jarangli va jufti yo`q jarangsiz undoshlar bilan ham o`quvchilar har xil fonetik sharoitda tovushlarni talaffuz qilishni kuzatish jarayonida tanishtiriladi. Buning uchun o`quvchilar so`z oxirida yoki unli tovushdan oldin kelgan ko`l, bilim, otam, olmos; quyon, bino; shifoner, fabrika; tong, singil; qo`y, kiyik kabi so`zlardagi jarangli undoshning talaffuzini taqqoslaydilar va l, m, n, r, ng, y jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda, ovoz va shovqin eshitilishini, ya'ni jarangli undosh tovush ekanini, bularning jarangsiz jufti yo`qligini (jufti yo`q jarangli undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Xuddi shunga o`xshash usulda o`quvchilar q, h undoshlari talaffuz qilinganda, faqat shovqin eshitilishini, jarangsiz undosh tovush ekanini, jarangli jufti yo`qligini (jufti yo`q jarangsiz undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Buni mustahkamlash uchun "Aqliy hujum metodi asosida avval jufti yo`q jaranli undoshlarni ayting, so`ng jufti yo`q jarangsiz undoshlarni ayting topshirig`i asosida xattaxtaga quyidagi ko`rinishda yoziladi:

**Jufti yo`q, jarangli undoshlar:** l, m, n, r, ng, y

**Jufti yo`q jarangsiz undoshlar:** q, h

Bolalar jufti yo`q jarangli undosh tovush so`zning oxirida kelganda ham alifbodagi xuddi shu harf yozilishini, ya’ni talaffuzi doim yozilishiga mos kelishini bilib olishlari yetarli. Jufti bor jarangli undosh tovushlar so`z oxirida kelganda, bunday moslik bo`lmaydi, ya’ni ko`pincha uning jarangsiz jufti talaffuz qilinadi (maktap, ozot kabi). Bunday so`zlar o`zbek tilida ko`p bo`lgani uchun 1-sinfdanoq o`quvchilarni ularning ayrimlari bilan tanishtirish zaruriyati tug`iladi. Dasturga ko`ra, 1-sinf o`quvchilari b va d jarangli undoshi so`z oxirida kelganda, uning jarangsiz jufti p va t talaffuz qilinishi bilan va bunday so`zlarning yozilishini qanday tekshirish bilan tanishtiriladi. Ularning talaffuzi va yozilishini tekshirishda fonetikaga asoslaniladi. O`quvchilar fonetik bilimlariga asoslangan holda, jufti bor jarangli undoshlarning yozilishini quyidagicha tushuntiradilar:

– Kitob so`zi oxirida jufti bor undosh tovushni eshityapman, shuning uchun so`zni tekshirish kerak. Shu undoshdan keyin unli tovush eshitiladigan so`z tanlayman: kitobi. Kitobi so`zida b tovushi eshitilyapti, shuning uchun kitob so`zida b harfini yozaman.

Bunday muhokama yuritish uchun o`quvchilar quyidagi bilim va ko`nikmalarni egallashlari kerak:

1. Jufti bor jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni ajratish.

2. So`z oxirida kelgan jufti bor jarangli undosh tovushning jarangsiz jufti eshitilishi, shuning uchun bunday so`zlarni tekshirish kerakligini bilish.

3. Undosh tovush unli tovushdan oldin kelganda, boshqa tovush bilan almashmasligini bilish. Undosh tovushdan so`ng unli tovush kelgan so`z tekshiruvchi so`z bo`la olishini bilish.

4. Tekshiruvchi va tekshiriluvchi so`zdagi undosh harfni taqqoslash (kitobi – kitob, maqsadi – maqsad, maqsadga).

Shunday qilib, o`quvchilar qanday so`zlar tekshirishni talab qilishi va uning sababini, qanday so`zlar tekshiruvchi so`z hisoblanadi va nima uchunligini bilishlari zarur.

Bular bilan bir qatorda jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni o`rgatishda klaster, charxpalak, 3x4 texnologiyasi, assestiment texnikasi kabilardan ham unumli foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qosimova K va boshqalar. **“**Ona tili o`qitish metodikasi”. T-2009.

2. U.Masharipova va boshqalar. Ona tili “2-sinf o`qituvchilari uchun ilg`or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo`yicha metodik qo`llanma T-2015.

3. www.tadqiqot.uz

4. www.ziyouz.com

# BIOLOGIYA VA ONA TILI FANLARINI O’QITISHDA AKVARIUM INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Sharipova Fazilat Ollaberganovna**
Xorazm viloyati Toshkent tibbiyot akademiyasi
Urganch filiali akademik litseyining biologiya fani o’qituvchisi
**Rozumbetova Dilara Yavkachevna**
Xonqa tuman 24- son maktaning
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

*Annotatsiya*: Bu maqolada biologiya va ona tili darslarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biriligi ko’rsatilgan. Shuningdek biologiya va ona tili o’qituvchilariga metodik tavsiyalar berilgan.
*Kalit so’z:* biologiya, interfaol, pedagog, metod, ona tili, bilim, malaka.

Interfaol o’qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim.Bu pedagogning o’qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o’qitsh jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta’lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganllik darajasini hisobga oladi.

Eng avvalo, interfaol metod – ta’lim jarayonida o’quvchilar hamda o’qituvchi o’rtasidagi faollikni oshirish orqali o’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo’llash dars samaradorligini oshirishga yordam berishini anglashimiz lozim. Demakki, Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish, o’quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko’pligi, o’quvchilar tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo’lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo’lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o’ziga xos ahamiyatga ega. Quyida eng ilg‘or pedagogik interfaol usullardan namuna keltirib tahlil qilar ekanmiz, bu usullarning amaliy ahamiyati, foydasi to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

**Akvarium.** Bunda 6-7 nafar ishtirokchilar guruh sardori bilan birga doira shakli bo’ylab o’tiradilar. Ular – «baliqlar». Ularning atrofiga guruhning qolgan ishtirokchilari o’tiradilar (yoki turadilar). Ular – «baliq ovchilari». Ichki doira a’zolari («baliqlar») o’qituvchi taklif qilgan savolni faol muhokama qiladilar. “Baliq ovchilari” esa kuzatib turadilar va savolni muhokama qilayotgan biron o’quvchining fikri ularni qiziqtirib qolganda jarayonga kirishadilar: qo’shimcha qiladilar, savol beradilar, aniqlashtiradilar. SHunda «baliq ovchisi» fikri uni qiziqtirib qolgan «baliq»ning yoniga turib olishi kerak. Bir muammoning (masalaning) muhokamasi tugaganidan so’ng ishtirokchilar joylari bilan almashadilar (doiradan tashqarida turganlar endi doira bo’ylab o’tiradilar). Barcha ishtirokchilar doirada o’tirishlari maqsadga muvofiqdir. Foydalanish doiralari. Tabiiy va aniq fanlarni o’rganish jarayonlarida qo’llaniladi.

Afzalliklari. Ishtirokchilarga norasmiy sharoitda fikr almashishga, berilgan muammoni (masalani) hal qilish bo’yicha o’z nuqtai nazarlarini bayon etishga imkon yaratadi. Muhokama jarayoniga erkin qo’shilish va undan chiqib ketishga imkon beradi. Tahliliy fikrlash, e’tibor jamlash va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi. Nutqni va teskari aloqa texnikasini rivojlantiradi. Qiyinchiliklari. Muammoni muhokama qilishda barcha o’quvchilar faol ishtirok etish jarayonida bahs-munozalar, nizolar yuzaga kelishi mumkin. SHu bois o’qituvchi yaxshi tayyorlanishi va kuchli qarama-qarshiliklar paydo bo’lishiga yo’l bermaydigan uslublarni bilishi lozim.

Aniq nazorat bo’lishini talab qiladi. Jarayon davomida ayrim o’quvchilar undan chiqib qolishlari (jarayonda ishtirok etmasliklari) mumkin. O’qituvchi muammoni muhokama qilishga barcha o’quvchilarni jalb qilish usullarini o’ylab chiqishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O‘z MU. 2003.- 66 b.
2. Ta’limda pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiyamaliy konferensiya materiallari.- T.:1999.- 212 b

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA BADIIY ASAR O‘QISHNING MOHIYATI

**Sotiboldiyeva Xikoyat Kamoljonovna**
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani
53-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarga badiiy asarlarni o’qitishda zarur bo’ladigan metod va usullar haqida fikr yuritilgan. O’quvchilar ongini oshirishda badiiy asarlarning roli tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** badiiy asar, o’quvchi, metod, ma’lumot, o`qish darslari, sinfda o’qish, uyda o’qish, ifodali o’qish, mazmun, kitob.

Darslarda ilg`or pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o`qituvchi nazariy ma`lumotlar, o`quv materiallarini zamonaviy usullar vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega boladi. Shuningdek, boshlang`ich sinf o`quvchilarining mustaqil fikr yuritishi, har tomonlama ma`naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish, o`zlashtirishida yuqori samaradorlikka erishishni ta`minlaydi.

Ta`lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish pedagogni muloqotga erkin kirishuvi, o`quvchilar bilan tez til topisha olishi, izlanishi, faoliyatiga ijodiy yondashishga yordam beradi.

Yosh avlodni ruhan sog`lom, ma`nan barkamol, yuksak marifatli qilib tarbiyalashda uni boshlang`ich sinfdanoq mustaqil fikrlashga o`rgatish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o`qish darslari o`quvchilarning ma`naviy dunyosini boyitishda muhim rol o`ynaydi. Badiiy asar o`qitish orqali o`quvchilarning badiiy didi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyati tarbiyalanadi va kamol topadi.

Turli badiiy asarlarni o`qitish, tahlil qilish orqali o`quvchilarda badiiy asar mualliflarining ko`zlagan maqsadini bilish va aniqlashga bo`lgan qiziqishlarni uyg`otadi. O`quvchilar qiziqish tuyg`usiga ega bo`lishlari uchun turli asarlarni, adabiy o`qish san`atini, o`qigan asarining mazmunini og`zaki va yozma bayon etishni, muloqat qilishni, hikoyalash ko`nikmalarini egallashlari kerak bo`ladi. Bunda ushbu usullardan foydalanamiz:

1. **Sinfda o`qish**. Boshlang`ich sinflarda badiiy asarlarni o`qishni o’rganishga kirishishdan oldin badiiy asar mazmunini o`quvchilar puxta o`zlashtirishlari uchun oldindan tayyorlashimiz kerak.

Bolalar asarni tushunishlarida, uning g`oyasi va obrazlarini to`g`ri va chuqur o`rganishlarida o`z munosabatlarini bildira olishi o`ta muhimdir. Asarni o`qish o`quvchilarga go`zallikni obrazlilikni, asar mazmunini chuqur o`zlaashtirishga o`rgatuvchi asosiy vosita hisoblanadi.

O`quvchilar dasturiga kiritilgan badiiy asar namunalarini sinfda to`g`ri, tez, ongli, ifodali o`qib, og`zaki qayta hikoyalash, reja asosida qayta hikoyalash, u bo`yicha bayon va insho yozish kabi ishlarni bajaradilar, uyda davom ettirib, asarni mustaqil o`qiydilar, eng muhimi – o`zlarini qiziqtirgan joylarini daftarlariga yozib qo`yadilar.

2. **Uyda o`qish**. O`quv yilining boshida o`quvchilarga badiiy asarni uyda o`qish yo`llarini: asarni tog`ri, ongli, ifodali, tez o`qish, o`qigan mavzusining o`zlashtirilishi, idrok etish yo`llarini tushuntirish kerak. Chunki o`quvchilar muallif tomonidan berilgan asarning izoh, tasviriy bayonlarini qoldirib, o`qishni to`g`ridan –to`g`ri asosiy voqeadan boshlaydilar shu sababdan sinfdagi mashg`ulot jarayonida bergan ko`rsatmalarni bajarilishini nazorat qilish kerak. Shu tariqa o`quvchilar asarni ifodali o`qish, idrok etish ko`nikmasini rivojlantirib boradi. Ular uchun quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

“Alisherning hayoti” qaysi bobda va qanday tasvirlangan (“Alisherning bolaligi”)?

Sabriya bibi bilan Niginani suhbatini so`zlab bering. (Safar Barnoyevning Bobonur hikoyasi).

Qaysar buzoqchaning bo`riga duch kelgan misralarini so`zlab bering (“Qaysar buzoqcha” masali).

O`quvchilarning badiiy asarga qiziqishini uyg`otishda ifodali o`qish konkursi, kitobxonlar konferensiyasi, bahs-munozaralar, namunalarni sahnalashtirish, biror asar yuzasidan munozara o`tkazib turish ham yaxshi natija beradi.

3. **Ifodali o`qish**. Ifodali o`qishda – asar mazmunini ta`sirchan va tushunarli o`qilishiga etibor berish kerak. Ifodali o`qishda matndagi intonatsiyani, urg`uli so`zlarni to`g`ri talaffuz etish, o`z o`rniga pauza qilish, emotsional, yoqimli ovozda o`qish talab qilinadi. Bu o`qishda yod olingan

materialni ifodali o`qishni ham o`z ichiga olib, og`zaki nutq bilan bog`lanadi. Qachonki, adabiy o`qish bilan mantiqiy o`qish to`liq o`zlashtirilgandan so`nggina ifodali o`qishga o`tiladi.

Mantiqiy o`qish asarning mazmuniga rioya qilib o`qishdir. Badiiy asarni ifodali o`qish- grammatik qonun-qoidalarga rioya qilib, o`qishdir. Ifodali o`qishning badiiy emotsional bo`lishi uchun ohang va intonatsiyani yuzaga keltiruvchi vaziyatni aniqlab olish badiiy asar mazmunini aniq va ta`sirchan ifodalashga o`rgatadi. Masalan: Muhammad Yusufning "Yurtim, ado bo`lmas armonlaring bor" she`rini ifodali o`qish obraz va hayajon bilan o`qiladi.

Yurtim, ado bo`lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig`latgan dostonlaring bor.
O`tmishingni o`ylab og`riydi jonim,
Ko`ksing to`la shahid o`g`lonlaring bor.

Badiiy asarni ifodali o`qish o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu uslu va metodlar orqali bolalarning estetik didi shakllantiriladi, yozuvchi va shoir ijodiga havas uyg`otiladi. Avvalo, biz o`qituvchilar o`zimiz ifodali o`qish qonun - qoidalarini, texnikasini yaxshi bilishimiz va unga amal qilishimiz kerak. Shundagina o`quvchilarimizning badiiy asarni puxta o`zlashtirishlariga, mustaqil fikr bildirishlariga, ijodiy va erkin fikrlash kabi malakalarini egallashlariga erishgan bo`lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N.Saidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent. -2014
2. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "Noshir" nashiryoti 2009
3. M.Rahimov, N.Aliyeva Interfaol metodlar. Namangan.-2014.
4. T.Gafforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T. 2011.

# BOSHLANG’ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI O`QITISHDA “OLTINCHI (YETTINCHISI) ORTIQCHA” INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Tillayeva Nilufar Allaberganovna**
Xorazm viloyati xiva tumani 11- sonli maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya*: Ush bu maqolada ona tili darslarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biriligi ko’rsatilgan va ona tili o’qituvchilariga metodik tavsiyalar berilgan.
*Kalit so’z:* interfaol, pedagog, metod, ona tili, bilim, malaka, ko'nikma, fikr.

Interfaol ta‘lim - ta‘lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo`li sifatida e‘tirof etilayotgan ta‘lim turi va o`qitish shakli sanaladi.

Ma'lumki, ona tili ta’limi o’quvchilarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta’limiga o‘quv fani emas, balki, butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qaraladi.

O’quvchilarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o’z-o’zini anglash salohiyatini shakllantirishga,jismonan sog’lom bo’lishga moddiy borliq go’zalliklarini his eta olishga, go’zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o’zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o’rgatadi.

Bu o`rinda ona tili darslarining ham o`rni katta. Bu darslarda ta’limjarayonida qo`llanilayotgan interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

So’z turkumlarini o’rganishda “Oltinchi (yettinchisi) ortiqcha” metodidan ham foydalanish mumkin. Buni biz ” Ortiqchasini ajrat” degan topshiriq bilan berdik. O’quvchilarga bir turkumdagi so’zlar ichiga boshqa turkumga doir so’zlar arlashtirib berildi. O’quvchilar ular ichidan boshqa turkumdagi so’zlarni ajratib olishdi va nima uchun ajratib olish sababiui izohlab berishadi. Bu uslni biz nkartochkalar yordamida va kompyuterda bajartirdik. Ortiqchasini ajratishgandan so’ng mavzuga taalluqli so’zlarni husnixat bilan daftarlariga yozdirdik.

Berilgan topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

**Otlar ichidan ortiqchasini ajrat.**

Daraxt, suv, osmon, ko’k, daftar, kamalak, yomg’ir, tiniq.

**Sifatlar ichidan ortiqchasini ajrat.**

Baland, keng, choynak, piyola, tor, katta, past, cho’mich, kapkir, kichik.

**Fe’llar ichidan ortiqchasini ajrat.**

Yuvindi, tebrandi, yugurdi, dutor, rubob, chrchadi, yangradi, uchdi

Ma’lumki, savod o’rgatish jarayonida o’quvchilar tovush, bo’g’in, so’z va
gaplarni grafik ifodalar ostida anglab, tushunib boradilar.

Texnika vositalaridan dars jarayonida foydallanish – dars matni yoki o`qituvchilar tomonidan o`quv materialini texnika vositasida o’tish emas, balki o`quvchilarning mazkur mavzuni mustaqil va ijodiy o`rganishi bo`yicha o`quv faoliyati dasturidir. Mazkur dasturda o`qituvchilar tomonidan tuzilib, unda texnika vositasining umumiy didaktik maqsadi, mavzuni o`rganish bosqichlari, o`quvchilar tomonidan bajariladigan o`quv faoliyati elementlari, ularning bilimini nazorat qilish yo`llari ketma-ket bayon etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsy javobgarli – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.-T.:”O’zbekiston”.2017.-B44

**2. J. F. Yuldoshev, „Yangi pedagogik texnologiya yunalishlari, muammolari, echimlari". „Xalk ta'limi" jurnali, T., №4 1999 yil.**

3. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedogogik texnologiya – Zamonaviy o’zbek modeli. – Toshkent: “ Lider Press”, 2009.

4.Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o`qitish texnologiyalari. – T.: ―Fan va texnologiyalar‖ nashrièti, 200.

# MAKTABDA FIZIKA FANINI O’QITISHDA “KIM CHAQQON” DIDAKTIK O’YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**To‘xtaboyeva Charos Shonazar qizi**
Xonqa tumani 24- maktabining fizika fani òqituvchisi.

*Annatotsiya:* Ush bu maqola maktabda fizika fanini qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga yetkazib berish kabi belgilarni o’z ichiga oladi va o’qituvchilarga metodik tavsiyalar berilgan.

*Kalit so’z:* fizika, ta’lim, ong, tafakkur, o’quvchi, og’zaki, yozma, didaktik.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan jamiyatning barcha jabhalari, xususan, ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnalogiyalaridan keng foydalanishni yo’lga qo’yishga qaratilayotgan e’tibor samarasi o’laroq, bugun jamiyatning barcha sohalari va xalqimiz turmush tarziga kompyuter texnalogiyalari chuqur kirib borayapti.

Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar.

Fizika fanlarni o‘qitish jarayoniga ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish tabiiy fanlar mazmunini yangilash, ularning asoslari borasida o‘quvchilarga chuqur nazariy bilimlarni berish, nazariy bilimlar asosida amaliy faoliyat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Fizika fanlarni o‘qitish jarayoniga yangi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish shaxs kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi mustaqil fikr yuritish, o‘z ustida ishlash, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish kabi xislatlarning ham shakllanishiga zamin yaratadi.

Fizika mashg’ulotlarida o’yin texnologiyalaridan foydalanish jadallashtiruvchi va faollashtiruvchi faoliyat bo’lib, o’quvchilarning og’zaki va yozma nutq ko’nikmalarini tarkib toptiradi.

Fizika mashg’ulotlari jarayoniga didaktik o’yinlarni tatbiq etish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish.

Ta’limiy o’yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning ma’lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda testlar, boshqatirma, tez aytish kabi o’yinlar muntazam o’tkazib turilsa, o’quvchilarda ma’lum bir ko’nikmalar to’planib boradi. Bu esa o’quvchilarda ma’lum bir tayyorgarlikni, mustaqil o’qishni, ommaviy axborot vositalarini kuzatib borishni talab etadi. Shunga ko’ra o’quvchilar egallashi shart bo’lgan ko’nikma va malakalar: qayta (ko’rsatma) olish, aniqlash (o’lchay) olish, tasvirlay olish, tushuntira olish va bashorat qila olish kabilarni hosil qiladi.

“KIM CHAQQON”

“Tabiiy o’simliklar” mavzusini o’tishda shu mavzuga taluqli bo’lgan o’simliklar nomi aytiladi: bu yerda har bir guruh o’ziga ajratilagan o’simliklar nomini ko’proq aytish va xatosiz yozish kerak. Tog‘, adir, o‘rmon, yaylov va cho‘llarda, ya’ni tabiat bag‘rida o‘sadigan o‘simliklar tabiiy o‘simliklar deb ataladi O‘simliklarni o‘t, buta va daraxt turlariga bo‘lib o‘rganamiz.

O’quvchilar uch guruhga ajratiladi.

| Fizik kattaliklar | Fizik kattaliklarning kichik birliklari | Fizik kattaliklarning katta birliklari |
|---|---|---|
| jismning uzunligi | metr | Kilo metr |
| jismning hajmi | milliylitr | Litr |
| jismning temperaturasi | Gradus | Seltsiy |
| jismning massasi | Gram | Kilogram |
| vaqt | Minut | Soat |

“Kim chaqqon” o’yin texnologiyasi qisqa vaqtda amalga oshiriladigan tizimlashgan guruhiy mashg’ulot bo’lib, uni o’tkazish oson va oldindan tayyorgarlik ko’rish shart emas. U ko’p vaqt olmaydi. O’yin o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishlarini kuchaytirib, darsning boshida, o’rtasida oxirida o’tkazish tavsiya qilinadi.

**Foydalanilagan adabiyotlar.**

1.R.H. Jo’raev, A. Zushunov “Ta’lim jarayonida o’quv fanlarini integratsiyalash omillari. O’qituvchilar uchun o’quv qo’llanma”. Sharq., 2006 yil.

2. Narziqul Sheronovich Turdiyev FIZIKA Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi. 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

# O`QUVCHILAR TARBIYASIDA INSHONING AHAMIYATI

**Xayrullayeva Gulshod Sunnatovna**
Buxoro viloyati G`ijduvon tumani
4-makab boshlang`ich sinf o`qituvchisi
(+998919259402)

**Annotatsiya:** Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita b o iib , his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi.

**Kalit so`zlar:** Insho, bayon, bog`lanishli nutq, morfologiya, emotsiya, hissiy daraja, ruhiyat, tashqi muhit.

Insho bolalaming voqea-hodisalarni chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini oshtiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqea-hodisalar haqida hikoya qiladilar va yozadilar, ularning inshosi mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, ommaviy faollikni oshiradi. Tanlangan mavzuning g'oyaviy yo'nalishini ochish tarbiyaviy vazifani hal qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mehnat, mehnat qahramonlari haqidagi, bolalaming hayoti, maktab, tug'ilib o'sgan qishlog'I yoki shahri haqidagi, urush qahramonlari haqidagi mavzular ayniqsa qulay. Bu mavzulardagi insholar mehnat kishilariga, qahramonlarga chuqur hurmatni tarbiyalaydi.

Insho jamiyat hayotini tushunishga o'rgatadi. Tabiatga, kishilarga, ularning yaxshilikka intilishlari va harakatlariga, mehnatga va mehnat mahsuliga muhabbatni tarbiyalaydi, kishilar xatti-harakatidagi chiroyli jihatlarni egallashga, hozirgi zamon axloqiy talablarini anglashda o'quvchilarga yordam beradi.

Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidaglarga rioya qilish talab etiladi:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga rioya qilgan holda og'zaki va yozma inshoni muntazam o ‘tkazib borish bilan o ‘quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash. Mustaqil insho o'quvchilar faolligini o'stiradi.

2. Inshoni hayot bilan bog`lash. Bunda kuzatishlar asosidagi insho, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan „hisobot" tarzidagi insho, xat, maqola, o'qilgan kitob haqida taqriz kabilarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

3. Insho uchun maktab va o'qituvchining tarbiyaviy vazifalariga mos bo'lgan mavzu tanlash. Bunday mavzularga mehnat haqidagi, kishilarning maqtovga loyiq ishlari haqidagi, axloqiy muammolar, Vatan haqidagi mavzular kiradi. Mavzuni o'qituvchi maktab sharoiti va o ‘z sinfi o'quvchilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlaydi.

4. Insho ustida ishlashda ishning hissiy darajasini — ta ’sirini oshirish. Bunda tabiat obrazli va emotsional, qahramonlik yoki foydali harakatlar qiziqarli, ta’sirchan qilib tasvirlanadi. „Vatan“ so'zini aytish bilan kishining bolalikda o ‘sib-ulg‘aygan joyi tasviri ko‘z oldida paydo bo`ladi. Ishlab chiqarishga ekskursiya materiali asosida mehnat haqidagi insho yangi tarbiyaviy imkoniyatlarni ochib beradi: unda bolalar ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklar, ilg'or kishilar haqidagi, kasb va mutaxassislik haqidagi, texnika haqidagi ma’lumotlardan foydalanadilar. Ishlab chiqarishga ekskursiya va mehnatni tasvirlash bilan bog'liq holda kasb haqida suhbatlashishga to‘g ‘ri keladi va bu inshoda o ‘z aksini topadi. Mehnat haqidagi insho gazetaga maqola shaklida yozilishi mumkin. Mehnat yoki ishlab chiqarish haqidagi insho mavzulariga „Bizning qishloq”, „Karam uzish“, „Bog‘da“, „Bizning jamoa xo‘jaIigimiz“, „Pochtada“ , „Do‘konda“, „Paxtakorlarga yordamimiz“, „Bizning hashar“ , „Maktab yer uchastkasida", „Daraxt o ‘tqazish“ kabilar kiradi.

„Men nimalarni bilaman?“ mavzusidagi tanlovga bolalar juda qiziqadilar. Tanlov bolalaming mehnat ko'nikmalarini aniqlabgina qolmay, ulami uyda, polizda, bog‘da ishlashga rag'batlantiradi. Maqsad kishilarga foyda keltiruvchi mehnatga hurmatni tarbiyalashdir. Qishloq maktab o'quvchilari ota-onalariga sabzavotlar ekish, hosilni yig‘ish, o'tin tayyorlash kabi ishlarda qanday yordamlashganliklari haqida yozadilar. Sinfda mehnat haqidagi insho muhokama qilinadi. Bolalar foydali, zaruriy ijtimoiy faoliyat sifatida mehnatning mohiyatini tushuntiradilar.

Kelajak haqida „Kim bo‘lishni xohlayman?“ mavzusida tayyorgarliksiz hikoya qilish tarzidagi

insho ham katta tarbiyaviy kuchga ega. Juda yaxshi yozilgan inshoni sinfda ifodali o'qib berish va tahlil qilish bolalarni tarbiyalaydi. Ba’zi maktablarda bolalar inshosi va hatto bolalar she’rlari to'plami tuziladi, yaxshi yozilgan hikoya uchun tanlov e’lon qilinadi.

Insho mavzusi va uni yoritish. Mavzu insho predmeti bo'lib, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab inshoda aks ettiriladigan materiallar, dalillar, hodisalar tanlanadi. Inshoning to'g'ri va to'liq bo'lishi o'qituvchi mavzuni qanday shakllantirishi, o'quvchilar uni qanday tushunishlariga bog'liq.

Xulosa: Insho — ijodiy ish bo'lib, u o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, mantiqiy bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma’naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.K.Qosimova, S.Matchonov, X.G`ulomova “Ona tili o`qitish metodikasi”

2. Internet ma’lumotlari

# XALQ TA’LIMI TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN INNOVATSIYA VA ISLOHOTLAR

**Xudayberdiyev Sirojiddin Mengaliyevich**
Surxondaryo viloyati Uzun tumani
Xalq ta’limi bo’limi mudiri

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Xalq ta’limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr bildirilgan.
**Kalit so’zlar:** Muammo, yechim, konsepsiya, islohot, ta’lim-tarbiya, xalqaro, reyting, dastur, yoshlar.

So’nggi yillarda ta’lim tizimida, jumlada, xalq ta’limi tizimida bir qancha islohotlar amalga oshirildi.

2019-yilning 29-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga imzo chekdi.

Hujjatda xalq ta’limi tizimida mavjud muammolar va ularni yechish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, konsepsiya tizimda islohotlar amalga oshiriladigan 9 ta yo‘nalish va 48 ta ko‘rsatkichni belgilab bergan.

Mazkur konsepsiya ta’lim tizimini rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlarini belgilab berdi:

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

O‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

Xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

Xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish;

Yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish; Yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

Xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish ko'zda tutib o'tilgan.

Bundan tashqari, hammamizga ma’lumki, murakkab o‘tish yillarida maktabda o‘qituvchi kasbining obro‘yi va nufuzi pasayib ketdi. O‘qituvchilardan ta’lim sifatini ta’minlash emas, balki qishloq xo‘jaligi va obodonlashtirish ishlarida faol ishtiroki talab qilingan. Prezidentimizning siyosiy irodasi natijasida o‘qituvchilar qishloq xo‘jaligi va obodonlashtirish ishlari hamda boshqa majburiy mehnatdan ozod qilindi.

Ularning mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o‘qituvchilarning ish haqi o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo‘shimcha oylik ustamalar to‘lanmoqda. Bu olis hudud ta’lim muassasalariga yetishmayotgan mingdan ziyod o‘qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o‘qituvchilarga pensiya to‘liq miqdorda berilmoqda. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘qituvchilarning oyliklarini yana qayta ko‘rib chiqish vazifasini belgilab berdi.

Xalq ta’limi tizimida yana bir muammolardan biri o‘quvchilar bilimini baholash tizimi yo‘qligidir. Shu bois ta’lim sifatini aniqlash uchun bir necha tashqi manbalar ma’lumoti o‘rganilib, xalqaro tajribalar amaliyotga joriy etilgan holda shaffof hamda obyektiv baholash mezonlari

yaratilmoqda.

Jumladan, maktab bitiruvchilarining 2019-yilda oliy ta’lim muassasalariga kirish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. 2 mingdan ziyod maktabning bironta o‘quvchisi oliy o‘quv yurtiga kira olmaganligi aniqlandi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan bu yil ilk bor maktablar reytingi e’lon qilindi. Reyting pedagoglar salohiyati, 9-sinf o‘quvchilari bilim darajasi, bitiruvchilarning OTMlarga kirish ko‘rsatkichlari va ijtimoiy so‘rovnomalarga asoslandi.

2020-yilda AQSHning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) bilan birgalikda boshlang‘ich sinf (2- va 4-sinf) o‘quvchilari o‘rtasida o‘qish (EGRA) va matematika (EGMA) savodxonligi bo‘yicha xalqaro baholash o‘tkazildi. Hozirgi kunda baholashni o‘tkazish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. 2019-noyabr oyida EGRA va EGMA baholash tizimi mamlakatimizning bir necha maktablarida sinovdan o‘tkazildi. 2021-2022-o’quv yillarida o‘quvchilar bilimi PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlari asosida aniqlanadi. Mazkur xalqaro baholash dasturlari mamlakatimiz ta’lim tizimini boshqa davlatlar bilan solishtirish va kamchiliklarini aniqlashga ko‘mak beradi.

2019-yilda mamlakatimizda iqtidorli bolalar bilan ishlash va ularning qobiliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha takomillashtirish ishlari boshlandi. Barcha maktablardagi ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha lokomotiv vazifasini o‘tovchi Prezident maktablari tashkil etildi. Prezident maktablari Toshkent, Xiva, Nukus va Namangan shaharlarida faoliyat boshladi.

Prezident maktablarida o‘quv jarayoni “STEAM — ta’lim“ dasturi (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san’at, Mathematics — matematika) bo‘yicha olib boriladi. Bu esa iqtidorli yoshlarning fikrlash qobiliyati, iroda, ijodiy salohiyati, moslashuvchanligini rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu yo‘nalishdagi darslar ingliz tilida olib boriladi. Ayni paytda maktab STEAM metodologiyasi bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar bilan ta’minlangan.

Yosh avlodni Vatanga muhabbat va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun Prezident maktablarida o‘zbek tilida o‘qitiladigan ona tili va adabiyoti, tarix va boshqa fanlarni chuqur o‘rganishga alohida e’tibor beriladi. 9-11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va xususiyatlariga qarab, Prezident maktabida ta’lim o‘quv jarayonini individualizatsiya qilingan holda olib boriladi. Shu bilan birga 2019-yil davomida bir necha ijod maktablari tashkil etildi. Ayni vaqtda mamlaktimizdagi 9 ta ijod maktablarida 1612 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4306-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra endilikda xalqaro olimpiada g‘oliblari va ularning o‘qituvchilari bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanish tizimi yo’lga qo’yildi.

Yuqorida ko’rib o’tilgan islohotlar sabab Xalq ta’limi tizimida ijobiy o’zgarishlari amalga oshirilmoqda, yuksalish jarayonlari ketmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4306-son qarori

2.2019-yilning 29-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonga

3.Www.uzedu.uz

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TA’LIM – TARBIYA BERISH, MALAKA VA KO‘NIKMALARINI OSHIRISH BO‘YICHA MULOHAZALAR

**Yusupova Dilnoza Maxammadinovna**
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 53-sonli maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi Tel: +998 93 266 65 82

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarga ta’lim – tarbiya berish, malaka va ko’nikmalarini oshirish, bilish jarayonlarini ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etish, egallagan bilimlarini ayta olish kabi pedagogik jarayonlar haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** boshlang’ich sinf, o’quvchi, kompetensiya, fan, bilim, ko’nikma, malaka, bola, ta’lim, o’qituvchi, bilish jarayonlari.

Yosh avlodga ta’lim-tarbiyani vijdonan yondashgan holda berish muhim masaladir. Hadislarda: “*Beshikdan to qabrgacha ilm izla*”, deyilishida juda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish insonni ma’naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi. Shuning uchun ham xalq ta’limi oldidagi eng katta muammo o’quvchilarning o’quv-biluv faoliyatiga kelib taqalishi bejiz emas. Zero, o’zlashtirishning pastligi o’qituvchilarni hamisha qiynaydigan dolzarb masalalardan biridir.

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning asosiy poydevori, o‘quvchilarning kelajakda komil inson bo‘lib voyaga yetishini ta’minlovchi muhim bosqich hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchining kelajakdagi taraqqiyotini belgilab beruvchi ruhiy, ta’limiy asoslar qo‘yiladi.

Fan, ta’lim tizimlari inson va shaxs rivojini tushunishning yaxlit nazariyasini yaratishda bugungi kun yoshlarining intellektual salohiyatini aniqlash va shu asosda ularning faoliyatini amalga oshirish o’ta dolzarb masala hisoblanadi. Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida boshlang’ich sinf o’quvchilarining bilish jarayonlarini ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etish, nazorat qilish, bilim, ko’nikma va malakalarni baholash, qayta bog’lanish yordamida imkoniyatlarni loyihalash muhimdir.

Ta’lim sifati - bu “ta’lim oluvchi-ta’lim beruvchi” darajasida muntazam ravishda, ta’lim oluvchilarning real imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib yo’lga qo’yish, ya’ni yaqin rivojlanish zonasini nazarda tutishni anglatadi. Shunga ko’ra, bugungi kunda ta’lim muassasalarida boshlang’ich sinf o’quvchilarining qiziqishlari yo’nalishlarini aniqlash, tashxis ishlarini tizimli tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarning o’zlashtirish xususiyatlariga asoslanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda pedagog va psixologlarning diqqat markazini o’quv predmetlarining nazariy asoslari va ularning tuzilishi bilan bir qatorda o’quvchilar faoliyati, unga dahldor psixologik va pedagogik qonuniyatlar hamda o’quv faoliyatini samarali boshqarish omillari ham band etib turibdi.

Bugungi kunda boshlang’ich sinf o’quvchilarining bilish faolligini oshirish, ularni o’qishga qiziqtirish va ularning fanlarga qiziqishini oshirish dolzarb muammodir. Qadimdan ham farzandlarning yaxshi tarbiyasi pedagoglar, mutafakkirlar diqqat markazida bo’lgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg’ariy, Yusuf Xos Hojib kabi qomusiy olimlar, keyinchalik Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, XX asr boshlarida esa jadidchi-ma’rifatparvarlar kabi ko’plab yurtdoshlarimizning pedagogik merosida bolani kichikligidan kasbiy ehtiyojlarini shakllantirish, qiziqishlari va imkoniyatlariga qarab o’qitish, ta’lim-tarbiyada turli usullarni qo’llash g’oyalari ilgari suriladi. Jumladan: “*Har bir kishini uning borlig’i va qobiliyatiga ko’ra o’qitish kerak. Aks holda ta’lim-tarbiya ko’zlangan natijani bermaydi*”; “*Har kimki ilm-hikmatni o’rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo’lsin, yaxshi axloq va odobli bo’lsin, so’zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo’lsin, xiyonat, makr-hiyladan uzoq bo’lsin*” va h.k.

Maktabga qadam qo’yish bilan bola hayotida muhim o’zgarishlar sodir bo’ladi. U yangi rejimning ayrim muhim odatlarini o’zlashtiradi, o’qituvchi va o’rtoqlari bilan ishonchli munosabatlar o’rnatadi. O’quv materiali mazmuniga nisbatan paydo bo’lgan qiziqish asosida unda o’qishga bo’lgan ijobiy munosabat mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bola idrokining o’tkirligi va sofligi, uning qiziquvchanligi va xayolining yorqinligi hammaga ma’lum. Buni uning o’yinida, rasm chizishida, loy va plastilindan narsalar yasash ishlarida, oddiy qurish-yasash mashg’ulotlarida

yaqqol kuzatish mumkin.

